

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK 78.147.323.248.

Xaitova Yulduz Saitovna

Yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi

5A111701-Ta'lism-tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan
dissertatsiya**

Ilmiy rahbar:

dots. Oripova N.X

QARSHI –2016

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishning nazariy asoslari.....	
1.1. Qadriyat va umummilliy qadriyat tushunchalarining mazmuni va mohiyati.....	
1.2. Sharq xalqlari tarixida qadriyatlar muammosining yoritilishi.....	
1.3. Ta'lim jarayonida umummilliy qadriyatlardan foydalanishning mavjud ahvoli.....	
I Bob bo'yicha xulosalar.....	
II BOB. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	
2.1. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish dasturi va texnologiyasi.....	
2.2. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar – yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish omili sifatida	
II Bob bo'yicha xulosalar.....	
III.Bob. Muammoga doir tajriba-sinov ishlari tashkil etilishi va uning samaradorlik darajasi.....	
3.1. Tajriba-sinov ishlari tahlili.....	III Bob
bo'yicha xulosalar.....	
Umumiy xulosaiar.....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	
Ilovalar.....	

KIRISH

Tadqoqot ishining dolzarbliги. Dunyo tinchligi va barqarorligini saqlash, mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish uchun har tomonlama bilimli, salohiyatli va albatta ma’naviyatli insonlarni shakllantirish masalasi har qachongidan ham dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xalqlar tinchligi va osoyishtaligiga rahna solayotgan terrorizm, diniy ekstremizm, ommaviy madaniyat kabi illatlar ustidan kurash uchun millatlar o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik, hamkorlik, tinchlik uchun kurash, yaxshi qo‘schnichilikni shakllantirish ham siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy muammolardan biridir. Ushbu muammoning maqbul va asosli yechimi, bizning fikrimizcha umummilliy qadriyatlarda mujassamdir.

Prezidentimiz I.Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida yoshlarimizning tarbiyasiga alohida to‘xtalib, «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, ochiq ko‘ngillilik, millatidan qat’iy nazar odamlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo‘lish, o‘zgalar kulfatiga hamdard bo‘lish va o‘zaro yordam tuyg‘usi kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning meyori hisoblanadi. O‘zbeklar diyoriga, o‘z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma’rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O‘zbekiston aholisiga xos fazilatdir” [5;78] - degan edi.

Darhaqiqat, Prezidentimiz ushbu fikrni mamlakatimizda yashovchi barcha millat vakillari nomidan aytganlar, desak, aslo xato bo‘lmaydi. Chunki, mamlakatimizda yuzdan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ular ham bugungi kunda ona Vatanimiz O‘zbekiston ravnaqi uchun mehnat qilmoqdalar. Mamlakatimizda istiqomat qiluvchi har bir millat vakili fuqarolarining asosiy maqsadi tinchlikni e’zozlash, mehnatsevarlik, ona tabiatni asrash, sahovat, shirinsuhanlik, o‘zidan kattalarni hurmat qilish, ota-onani e’zozlash, ilm egallash, to‘g‘ri so‘zlik, mehmondo‘slik, bag‘rikenglik kabi insoniy fazilatlar barchasi umummilliy qadriyatlar turkumiga kiruvchi xalqlarning ezgu hislatlaridan biridir. Bizning vazifamiz ushbu qadriyatlarni yanada mukammal o‘rganish, ularni ta’lim tarbiya jarayoniga tadbiq etish hamda boshlang‘ich sinflardanoq o‘quvchilar shaxsini shakllantirishda ulardan tarbiya vositasi sifatida foydalanishdan iboratdir.

Buning uchun esa avvalo yosh avlodning ongida yangicha dunyoqarashni, mustaqil fikrlashni hamda axloqiy fazilatlarini yuqori darajada shakllantirish lozim bo‘ladi. Shu bilan birga ularda umummilliy qadriyatlarga xos bo‘lgan barcha hislatlar: tinchlikni e’zozlash, insonparvarlik, ona tabiatni asrash, mehnatsevarlik, ilm egallashga intilish kabilar mujassam bo‘lmog‘i lozim. Bu borada bizga asosiy manba bo‘lib umummilliy qadriyatlar hisoblanadi.

Chunki, barcha millatlarga xos bo‘lgan qarashlar, tartib-qoidalar barchasi ana shu qadriyatlarda mujassamdir.

Umummilliy qadriyatlар haqida fikr yuritishdan oldin, faylasuf olim Q. Nazarovning [58; 196] umuminsoniy qadriyatlар haqidagi fikriga to‘xtalib o‘tish joiz bo‘ladi. Olimning fikricha: "Umuminsoniy qadriyatlар" jamiyat va odamzod uchun eng qadrli narsalarning ismi, nomi yoki atamasi emas, balki ularning ahamiyatini hamda ijtimoiy qadrini ifodalash uchun ishlatalidigan falsafiy-aksiologik tushunchadir. Bizning davrimizga kelib umumiisoniy qadriyatlар har qanday umumiy qadriyatlар tizimining markaziy va asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib qolganligining sabablari quyidagilardir:

- Yer sayyorasini olamdagи hamma kishilar uchun, ularning irqi, millati, e’tiqodi, toifasi va boshqa tabiiy tarixiy hamda ijtimoiy farq-tafovutlaridan qat’iy nazar, eng umumiy makon, cheksiz koinotdagi mo‘jazgina yulduz ekanligini tobora yaqqolroq his etila boshlanganligi;

- olamdagи ijtimoiy xilma-xillik, siyosiy va mafquraviy rang-baranglik, turli xil ehtyyoj, qiziqish, maqsad, iitilish, hatti-harakat, faoliyatlarni uyg‘unlashtiradigan, jahon rivojlanish jarayoni va umumbashariyat talablariga mos keladigan eng umumiy ma’naviy mezonlarga muhtojlik sezila boshlanganligi;

- dahshatlı qirg‘in qurollari, yadro urushi, ekologik bo‘hronlar va ma’naviy tanazzul kabi xavflar bilan yuzma-yuz kelish natijasida insoniyat kelajagi, Yer-sayyorasi aholisi umumiy genofondi taqdiri xavf ostida qolganligi, Yerda insoniyatni hozirgi avlodi mansub bo‘lgan sivilizatsiyani saqlab qolish ehtiyojlari;

- kishilarli turli ijtimoiy tuzumlar va davlatlarda yashashidan qat’iy nazar, hamma joyda eng asosiy maqsad - inson, uni tirikligi va mazmunli hayoti ekanligini, bunday hayotni ta’minalashda butun jahon ahamiyatiga molik universal texnologiyalar, ilm-fan yutuqlari, ularni hamma mamlakatlarda qo‘llash imkoniyatlari umumiyligini, buimkoniyatlarni umumjahon voqeligiga aylantirish uchun umumsayyoraviy hamkorlik zarurligini tobora ko‘proq anglab olayotganligi” kabi fikrlarni bayon etadi.

Shuningdek, olimning fikrini to‘ldirgan holda umummilliy qadriyatlар negizini tashkil etuvchi barcha xalqlarning an’ana, urf-odat va ajdodlar ma’naviy merosida shaxs kamolotiga oid ajoyib fikrlar ham borki, ular o‘quvchilar ma’naviyatini shakllantirishda muhim, qimmatli manba bo‘la oladi. Jumladan, umummilliy qadriyatlardan biri masalan, axloqiy qadriyatlarning o‘quvchilarni tarbiyalashda ahamiyati nechog‘li kattadir. Umummilliy axloqiy qadriyatlар kishilarning bir-birlariga, o‘zлari mansub jamoaga, Vatanga nisbatan tarixan munosabatini ifodalaydi. Axloqiy qadriyatlар kishilarning o‘zaro muomalasida, yurish-turishida, odob-axloqida namoyon bo‘ladi. Har bir millat o‘zining axloqiy qarash va normalariga ega. Jumladan o‘zbek xalqining axloqiy qarashlari va normalari davr sinovlaridan o‘tib, bizgacha yetib kelgan hamda

xalqimiz uchun qadriyat sifatida e'zozlanib kelinadi. Bir millat qadriyatlari ba'zan boshqa millat iadriyatlaring ijobiy tomonlarini ham o'zida aks ettiradi. Jumladan Islom ta'limotida mavjud bo'lgan qadriyatlар ya'ni ezgulik, saxiylik, bag'rikenglik, shukronalik, halollik, ilm egallshga intilish kabilar ko'plab millat vakillari tomonidan tomonidan yaxshi qabul qilinib, o'zlashtirib olingan va amal qilinib kelinmoqda.

Muammoning o'r ganilganlik darajasi. Bizga ma'lumki, istiqloldan so'ng yurtimizda qadriyatlар muammosi keng va atroflicha o'r ganila boshlandi. Uning mazmun-mohiyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning [5,6,7,8,9,10] asarlarida o'zining ilmiy talqinini topdi.

Yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilgan qator ishlarda muammoning tarbiyaviy jihatdan talqini bayon etilgan bo'lib, S.Nishonova[44;320], O.Musurmonova[53;192], U.Mahkamov[45;134] kabi ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqotlari shu jihatdan e'tiborga loyiqidir. Mazkur ishlarda ma'naviyat, qadriyat va vatanparvarlikning mohiyati yoritilib, milliy qadriyatlар vositasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, vatanparvar insonlar qilib voyaga yetkazishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu muammoning falsafiy jihatlari J. Tulenov [72], A.Erkayev [94], Q. Nazarovlar [58], E. Yusupov [83] kabi faylasuflar tomonidan tadqiq etilgan.

Yuqoridaagi ilmiy adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, bugungi kunda biz tadqiq etayotgan mavzu olimlar tomonidan yetarlicha o'r ganilmagan.

O'z navbatida shuni alohida ta'kidlashimiz joizki, bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuf va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlich ra'yif, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.

Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Bunday ta'rif, bizningcha, ko'p tomonidan masalaning mohiyatini to'g'ri ifodalaydi.

Globallashuv jarayonlarining asosiy tendensiyalaridan biri shaxs ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning nihoyatda ko'payib ketishi, mafkuralarga poligonlarga aylanib borishi bilan ham bog'liq. Bu omil ta'lim tizimida, ayniqsa muayyan xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi bizga ma'lum va ravshandir.

Respublikamizda olib borilayotgan siyosatning va Prezidentimiz da'vatlarining mohiyatini ham ushbu masala tashkil etadi. Zero, e'tiqodsizlik, turli yot oqim va mafkuralarga ergashish holati jamiyatni inqiroz sari yetaklaydi. Shu bois, Prezidentimiz deyarli barcha asarlarida yoshlar tarbiyasiga jiddiy yondoshish va ularni yot g'oyalardan muhofaza qilish lozimligini ta'kidlaydi:

“Takror aytishga to‘g‘ri keladi – ota-onalar, ustoz murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo‘qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo‘lmasligimiz zarur” [10; 15].

Shunday ekan, biz pedagoglar yoshlar tarbiyasida faqat va faqat umummilliy qadriyatlarga suyanishimiz hamda yoshlarmizni unga amal qilishni o‘rgatmog‘imiz lozim. Demak, “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” mavzusidagi loyiha ishida ayni shu dolzarb hayotiy muammoning ilmiy-pedagogik asoslari ishlab chiqiladi. Ishda “qadriyat”, “umummilliy qadriyat”, “milliy qadriyat” tushunchalariga ta’rif beriladi va yoshlarni umummilliy qadriyatlar asosida tarbiyalash yo‘llari tadqiq etiladi.

Tadqiqotning maqsadi: yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini aniqlash, shuningdek, uni takomillashtirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari:

1. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish pedagogik muammo ekanligini nazariy hamda amaliy jihatdan asoslash.
2. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan vositalar va manbalarni aniqlash.
3. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari, shakllari, metod va usullarini belgilash.
4. Tadqiq etayotgan muammo yechimini takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasini belgilash.

Tadqiqotning obyekti: yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish jarayoni

Tadqiqotning predmeti: Ta‘lim va ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida umummilliy qadriyatlardan foydalanishning mazmuni, manbalari, shakllari, vositalari.

Tadqiqot metodlari: nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, anketa, savol-javob, test so‘rovlari, pedagogik eksperiment, matematik statistika.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish ilmiy-nazariy va tarixiy asoslari.
2. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish mezonlari.
3. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari hamda uni shakllantirishga xizmat qiladigan manbalar va vositalar.

4. Ushbu pedagogik jarayonni takomillashtirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

1. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish muammosi nazariy-amaliy jihatdan asoslandi.

2. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan vositalar va manbalar belgilandi.

3. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan tarixiy tajribalar o‘rganildi, umumlashtirildi va ulardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatildi.

4. Muammoni takomillashtirishga oid texnologiya va metodika ishlab chiqildi hamda uning samaradorlik darajasi aniqlandi.

5. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar – yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishning asosiy yo‘nalishi ekanligi ilmiy-amaliy isbotlab berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida pedagogika fani yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlar, pedagogik g‘oyalar, tarixiy tajribalar, ulardan foydalanish imkoniyatlari bilan boyitildi. Eng muhimmi tadqiqot jarayonida muammoni takomillashtirishga oid texnologiya va metodika ishlab chiqildi. Ushbu metodika va nazariy yondashuvlardan o‘qituvchilar, talabalar, o‘qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari va keng jamotachilik foydalanishlari mumkin.

Tadqiqotning ilmiy farazi - agar:

- Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari aniqlansa;

- Muammoni tadqiq etishga doir pedagogik jarayonning mazmuni, shakllari, usul va metodlari belgilab berilsa;

- Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon muayyan ilmiy metodik tavsiyalarga tayanilgan holda tashkil etilsa;

- yoshlarda umummilliy qadriyatlarni hurmatlash va e’zozlashga oid tarixiy tajribalar umumlashtirilib, ulardan ta’lim amaliyotida foydalanish texnologiyasi va metodikasi ishlab chiqilsa, ushbu pedagogik jarayon samarali kechadi hamda yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasi barqaror, izchil shakllanib boradi.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar

tayyorlash milliy dasturi, “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi”, Pedagogika fani konsepsiysi, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning shaxs kamoloti, yoshlarni vatan va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta’lim tizimi, shu jumladan, yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini rivojlantirish haqidagi nazariy qarashlari, yondashuvlari, tarixiy-ma’naviy meros namunalari, shuningdek, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar, o’quv metodik majmular.

Ishning sinovdan o’tishi. Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi 3 kurslari bilan o’tkazildi. Tadqiqot ikki bosqichli bo’lib, ular quyidagilardir:

Birinchi bosqich (2014-2015 yillar)da tadqiqot mavzusi bo'yicha falsafiy, pedagogik, didaktik adabiyotlar va matbuot materiallari o'rganilib, tahlil qilindi. Tadqiqot bo'yicha tajriba-sinov dasturi tuzilib, ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi, mavjud holat tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi.

Ikkinci bosqich (2015-2016 yillar)da yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni aniqlanib, nazariy jihatdan asoslandi. Ishlab chiqilgan maxsus metodika sinovdan o'tkazildi va uning samaradorlik darajasi aniqlandi. Tajriba-sinov natijalari tahlil qilindi, nazariy jihatdan umumlashtirildi va yakunlandi. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishga yordam beruvchi nazariy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari umumlashtirilib, dissertatsiya shakliga keltirildi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, 6 paragraf, umumiylar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, uning asosiy matni 80 betni tashkil etadi.

I BOB. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari

1.1. Qadriyatlar va umummilliy qadriyatlar tushunchalarining mazmuni va mohiyati

Yoshlarda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirish uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Bu tushunchalar xalqimizning o‘tmish tarixi va bugungi kunda amalga oshirayotgan olamshumul ishlarining o‘ziga xos talqinini yoshlarning ongiga ularning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yetkazish orqaligina shakllanishi mumkin. Bunday tushunchalarni shakllantirishda xalqimiz ma’naviyatining asosini tashkil qiladigan qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, yosh avlodda azaliy qadriyatlarga hurmat uyg‘otishga asosiy e’tibor qaratildi. Qadriyatlarni chuqurroq anglash va anglatish qaror topmoqda. Bugungi kunda olimlar umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularning mohiyati, o‘zaro aloqasi, qadriyatlarning inson hayotida tutgan o‘rni, ularning tarbiyaviy ta’siri hamda ta’lim-tarbiya jarayonida ular vositasida o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish ustida keng ko‘lamli tadqiqotlarni amalga oshirmoqdalar.

Qadriyatlar inson ongi va faoliyatining, shu bilan birga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy taraqqiyotining mahsulidir. Qadriyatlarda o‘tgan zamonda yashagan odamlarning orzu-umidlari, istaklari, xullas, moddiy va ma’naviy ehtiyojlari o‘z ifodasini topadi. Vaqt va davr talablari o‘zgargan sari qadriyatlarning mazmuni ham o‘zgarib boradi.

Faylasuflar ta’kidlaganidek, qadriyatlar hech qachon obyektga ham, subyektga ham bog‘liq bo‘lmagan mustaqil olamni vujudga keltiradi. Bu olam makon va zamon qonunlaridan ustun turadi. Shuningdek, insoniyatning buyuk ma’naviy xazinasi bo‘lgan qadriyatlar hech qachon o‘zgarmaydi, balki insonning qadriyatlar haqidagi tasavvurlari o‘zgaradi. Butun olam qadriyatlar bilan to‘lib-toshgan bo‘ladi va borliqqa hamisha yangi ma’no ato etadi. Shuning uchun ham butun voqelik qadriyatlarning o‘ziga xos namoyishidan iboratdir.

Qadriyatshunos olimlardan biri J.Tulenov shunday yozadi: “Qadriyatlar deyilganda faqat o‘tmish davrlar uchun muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmui tushuniladi, qadriyatlar qadr-qimmat degan ma’noni bildiradi” [72; 335].

E.Yusupovning fikricha, – “qadriyatlar jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma’naviy boyliklardir” [83; 494].


O.Musurmonovaning “Yuqori sinf o‘quvchilarining ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari” mavzusidagi doktorlik ilmiy ishida qadriyatlarning mohiyati quyidagicha izohlanadi,- “Qadriyat – insonning ma’naviy ehtiyojlari asosida paydo bo‘lgan, amaliy faoliyatida davr sinovidan muvaffaqiyatli o‘tgan, o‘z shakl va mazmunida u yoki bu xalqning ma’naviy olamini mujassam etgan, asrlar davomida xalqning ma’naviy madaniyatini shakllantirish manbai sifatida qadrlanib kelingan, ma’naviy-ruhiy xatti-harakatlar, narsa va hodisalar majmuidir” [53; 192].

Qadriyatlarning ham o‘ziga xos qonunlari mavjud. Bu qonunlar inson ongi va irodasiga bo‘ysunmaydi. Qadriyatlar obyektiv olamning subyektiv in’ikosi bo‘lgani uchun kishilarning

ijtimoiy faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Shu sababdan kishilar o‘zlarining turmush tarzlarini insoniyat yaratgan qadriyatlar talablariga qarab o‘zgartirib boradilar.

Qadriyatlar o‘zining mazmun, mohiyatiga ko‘ra bir necha turga bo‘linadi. Ularni biz quyidagi rasmida tasvirladik.

1.1.1. - rasm



Pedagogikaning aksiologik aspektni tashkil qiluvchi qadriyatlar tizimi quyidagilarni: shaxsni ijtimoiy sohadagi rolini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlar; muloqot jarayonidagi talabni qondiruvchi qadriyatlar; ijodiy individuallikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan qadriyatlar; amaliy imkoniyatlarni qondirishga imkon beradigan qadriyatlar.

Bizning mamlakatimizda ham inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Insoniyat mavjudki, uning qadr-qimmati ulug‘lanib kelinadi. Shu boisdan insonning qadr-qimmatini e’zozlash, uning turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘ligini muhofaza qilish, hayotini himoya qilish davlat siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. Jamiatda bo‘layotgan o‘zgarishlar, islohotlar, qabul qilinayotgan qonun va nizomlarning mohiyati ham shundadir. Qadriyatlarning inson va jamiat hayotidagi o‘rni, ijtimoiy xarakteriga ko‘ra milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek, kishilarning yoshi, kasbiy

xususiyatlarga xos qadriyatlarga bo‘lish mumkin. Bozor iqtisodiyoti tobora rivojlanayotgan hozirgi sharoitida inson o‘zining individual xususiyatlarga tayanishi, o‘z kelajagini barpo etishi lozim.

Shuningdek, insonning ehtiyojlarini qondirishda tabiiy qadriyatlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Shunday shaxsiy ehtiyojlardan biri vatanga e’tiqodning shakllanishi bilan belgilanadi. Bunday tushunchalarni shakllantirishda bir qator qadriyatlar muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, tabiiy qadriyatlar, ularga yer usti va yer osti boyliklari, konlar, suv, havo, o‘rmonlar, o‘simgiliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar kiradi. O‘zbekiston zamini xilma-xil qazilma boyliklarga ega. O‘quvchilarga bu boyliklar haqida ma’lumot berish orqali ularda vatanga e’tiqodni shakllantirish muhim amaliy ahamiyatga ega. Yer yuzida mavjud bo‘lgan barcha qazilma boyliklar, o‘rmon, hayvonot olami va hokazolar moddiy boyliklar sanaladi. Qachonki, ular inson tomonidan o‘zlashtirilganda, uning ahamiyati va qadr-qimmati yanada oshadi.

Insonning aqliy va jismoniy mehnati natijasida yaratilgan turli- tuman moddiy boyliklar, zavod-fabrikalar, ishlab chiqarish kuchlari, transport vositalari, asbob-uskunalar, turar-joy, mol-mulk, noz-ne’mat va shu kabilar moddiy qadriyatlar hisoblanadi.

Yosh avlod ma’naviyati va dunyoqarashining shakllanishida madaniy—ma’naviy qadriyatlar alohida ahamiyat kasb etadi. “Ma’naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo‘l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlar tufayli yuzaga keladi va o‘sha davr hayotini aks ettiradi, u hayot o‘zgarishi bilan yo‘qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun ma’naviy meros bo‘lib qoladi. Har bir avlod ma’naviyatni yangidan yaratmaydi, ma’naviy merosga tayanadi, biroq uni qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘rko‘rona qabul qilavermaydi, taraqqiyotparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi” [73;381].

Ma’naviy qadriyatlarga ilmiy-texnikaviy va intellektual imkoniyatlar, maorif, ta’lim-tarbiya, tibbiy xizmat, milliy meros, turli shakllarda namoyon bo‘ladigan madaniyat durdonalari, til, adabiyot, san’at, xalq hunarmandchiligi mahsulotlari, noyob tarixiy va madaniy yodgordiklar, arxitektura inshootlari va boshqalar kiradi. O‘quvchi shaxsi taraqqiyotini ta’minlashda moddiy va ma’naviy qadriyatlarning o‘rni katta. Ularni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchilarda o‘z xalqi, millati va vatanidan g‘ururlanish, unga e’tiqod qo‘yish tuyg‘usi qaror topadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Biz barpo etayotgan yangi jamiat yuksak ma’naviy va axloqiy qadriyatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Bu jarayon milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasiga, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi” [6;509].

Xullas, yuqoridaq qadriyat haqidagi fikr va mulohazalarni o‘rganib chiqqan holda, qadriyat tushunchasi haqida quyidagi izohni keltirib o‘tmoqchimiz. Qadriyat – inson uchun

ahamiyatli va qadr-qimmatga ega bo‘lgan, kishilarning manfaatlari va maqsadlari yo‘lida xizmat qiladigan, tabiat hamda jamiyat hodisalari majmuidan iborat dialektik birlikdir.

Insonning qadr-qimmati, sha’ni, or-nomusi, g‘ururi, e’tiqodi milliy qadriyatlarni o‘zlashtirish vositasida shakllanadi. Milliy qadriyatlар har bir kishining tili, dini, tarixi, adabiyoti, san’ati, rasm-rusumlari, urf-odatlari, bayramu sayillari, boshqacha aytganda, madaniy-ma’naviy merosi, insoniy fazilatlari, xislatlarining yig‘indisidir. Milliy qadriyatlар o’sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan insoniylik, odamiylikka xos fazilatlari, xislatlar, xususiyatlarni, milliy madaniy meros xazinasiga qo‘sghan hissasini ifodalovchi ko‘rsatkichdir. Milliy qadriyatlар millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Milliy qadriyatlар millat yaratgan madaniy-ma’naviy merosni, xususan, millat vakillariga xos barcha insoniy fazilatlari, xislatlarni o‘tmishdan bugunga yetkazadi. Shuning uchun ham milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga har bir millatning o‘zi mas’uldir. Har qanday sharoitda ham, chunonchi, biror millat ozod, farovon bo‘lganda ham, qullik, tobelik iskanjasiga tushib qolganda ham, unda milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun ichki imkoniyat mavjud bo‘ladi.

Milliy qadriyatlар kishilar tarixiy birligini ta’minlaydigan etnik makonda shakllanadi va turli-tuman ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Kishilarning ongi, dunyoqarashi va faoliyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Odamlarning kundalik turmush tarzi, ularning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari, manfaatlari, qiziqishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, milliy qadriyatlар bir joyda qotib qolmaydi, tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarib, takomillashib boradi. Yangicha mazmun va shaklga kiradi.

Shu xususiyati bilan milliy qadriyatlар millatning o‘ziga xos qadriyatlарini umuminsoniy qadriyatlар bilan bog‘lovchi halqa hisoblanadi. Eng asosiysi milliy qadriyatlар, umummilliy qadriyatlар bilan o‘zaro aloqadorlikda, dialektik birlikda rivojlanadi. Bir millat uchun ahamiyatli bo‘lgan qadriyatlар keyinchalik umummilliy qadriyatlarga ham aylanishi mumkin. Masalan, milliy qadriyatimiz hisoblangan Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi, Beruniy yoki al-Xorazmiyning matematika sohasidagi, imom al-Buxoriyning hadis ilmi rivoji, Ulug‘bekning astranomiya faniga qo‘sghan hissasi, Amir Temuring bunyod qilgan tarixiy obidalari, Boburning Hind diyoridagi davlatni idora qilish, obodonchilik ishlari, Alisher Navoiyning she’riyat mulkiga qo‘sghan hissasi kabilar bugungi kunda umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Chunki ushbu qadriyatlardan butun dunyo xalqlari foydalanadilar hamda barcha fanlar taraqqiyoti uchun qadrli, ahamiyatli hisoblanadi.

Demak, milliy qadriyatlар ijtimoiy-ruhiy hodisa sanalib, u o‘z doirasiga shu millatning tili, dini, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, an’analari hamda moddiy va ma’naviy boyliklari, xalq hayotining barcha jabhalarini qamrab oladi. Shuningdek, milliy qadriyatlар ham turlariga ko‘ra moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘linadi.

Milliy-ma’naviy qadriyatlar moddiy qadriyatlarga nisbatan yashovchan xarakterga egadir. Milliy qadriyatlar jamiyat madaniyati, shaxs ma’naviyati va e’tiqodining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir xalq o’zligini o’tmish ma’naviy madaniyati orqali anglaydi. O’zining kelajakdagi yo’lini belgilab oladi va jahon tarixida o’z o’rniga ega bo’ladi. Shuning uchun inson ma’naviy madaniyati, dunyoqarashini ijobiy tomonga yo’naltirish bugungi kunda ta’lim-tarbiya oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Milliy-ma’naviy meros kelajak avlod uchun vorislik vazifasini o’taydi.

Xalqlarning milliy-ma’naviy qadriyatlari mazmunida vatanparvarlik, o’zaro hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, o’zaro hurmat, bir-biriga suyanish, yaxshi qo’shnichilik, ota-onaga hurmat, mehr-oqibat va sadoqat har tomonlama e’zozlanib kelinadi.

Milliy-ma’naviy qadriyatlar negizini esa an’analalar, ya’ni urf-odatlar, rasm-rusumlar, bayramu sayillar tashkil etadi. Ana shulardan biri an’analardir. An’ana – bu o’ziga xos ijtimoiy hodisa bo’lib, kishilarning ongi, hayotida o’z o’rnini topgan, ajdodlardan-avlodlarga o’tadigan, takrorlanadigan, hayotning barcha sohalarida qabul qilingan tartib va qoidalardir. Demak, an’analalar xalq ma’naviy hayotining turli sohalarini o’z ichiga oladi. Har bir millatning o’ziga xos muayyan an’analari borki, ular xalqning turmushini bezab turadi va milliy qadr-qimmatini yuksaltiradi, hayotining mazmunli o’tishiga sababchi bo’ladi. Har bir yangi avlod o’tmish avlodlarning tajribasini an’analor orqali qabul qiladi.

– An’analar urf-odatlardan ko‘ra kengroq tushunchadir. An’analalar millat ijtimoiy hayotining hamma tomonlariga xos bo’lib, ular ijtimoiy ongning hamma shakllarida bor, ularni faqat axloq, huquq, dinda emas, balki siyosat, fan, san’atda, ba’zan kishilarning ish faoliyatlarida ham uchratish mumkin.

– Biz qadriyatlarni o’rganar ekanmiz, milliy an’analarni quyidagi ko‘rinishda ifodaladik:

– vatanparvarlikni shakllantiruvchi an’analalar (turli vatanparvarlikni tarbiyalovchi tadbirlarning o’tkazilishi, ko‘rik-tanlovlarning tashkil qilinishi, harbiylar kunining nishonlanishi kabilar);

– mehnat an’analari (ommaviy hasharlarning tashkil qilishi, paxtakor, g‘allakorlar mehnatini qadrlash, tozalik kunlarining o’tkazilishi);

– milliy o‘yinlar, sport turlari (ko‘pkari, milliy kurash, poygalar);

– oilaviy-maishiy an’analalar (mehmondo’stlik, o’zaro hurmat, ota-onalarni e’zozlash kabilar);

– islom diniga hurmat yuzasidan o’tkaziladigan an’analalar (qurbon hayiti, iydi ramazon);

boshqa millat vakillariga hurmat yuzasidan o’tkaziladigan an’analalar (rus, tatar, tojik, hatto chet mamlakatlar kunlarining tashkil qilinishi).

Shuningdek, an'analarning ko'rinishlari ko'proq oila sharoitida namoyon bo'ladi. Oilaviy an'analar – bayram va marosimlar, oila hayotida ro'y beruvchi turli yutuq, voqealarni nishonlash, xotirlash sifatida o'tkaziluvchi an'analardan iborat bo'lib, ular yoshlarda oila a'zolariga nisbatan hamjihatilik, hamdardlik, hamkorlik, o'zaro hurmat, mehribonlik kabi fazilatlarni tarbiyalashda muhim o'rinni tutadi. Shu jihatdan oilaviy an'analarning o'ziga xosligini ta'kidlab o'tmoqchimiz. Bu esa oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi, ya'ni ota va farzand, er va xotin, qaynona va kelin, aka va uka, qo'ni-qo'shni o'rtasidagi hurmat, e'tibor, samimiylilik yuzasidan o'rnatilgan aloqalar jarayonida ko'zga tashlanadi. Oilaviy an'analar vorisiy hisoblanib, avloddan-avlodga berib boriladi.

Oilada bayram va an'analarni nishonlash, kishilar hayotini zavq-shavqqa to'ldirishi bilan birga, oila a'zolari o'rtasida o'zaro mehr-oqibat, e'tiborni ta'minlab boradi. Bayramlarning chiroqli qilib o'tkazilishi oila a'zolariga ko'tarinkilik kayfiyatini baxsh etadi. Ayniqsa, bunda bolalar kattalar qatori o'z o'rniga ega bo'la boshlaydi. Shuningdek, bolaning oiladagi xulq-atvor ko'nikmalarini shakllantirishga ham ijobjiy ta'sir o'tkazadi.

Oilaviy an'analarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- umummilliy an'analar (yangi yilni kutib olish, onajonlar bayrami);
- shaxs an'analari (farzand tug'ilishi, tug'ilgan kunlar);
- bolaning hayot yo'li bilan bog'liq an'analar (birinchi qo'ng'iroq, yoshlari tashkilotlariga a'zo bo'lish, fuqarolik pasportini olish, so'nggi qo'ng'iroq).
- milliy urf-odatlar bilan bog'liq an'analar (chaqaloqning qulog'iga azon aytish, beshikka belash, atak-chechak, muchal yoshining nishonlanishi, sunnat to'ylari).

Har bir millatning o'ziga xos, rang-barang urf-odatlari, rasm-rusumlari, marosimlari asrlarga tengdoshdir. Xalqlar borki, shu udum, urf-odatlari bilan jahon madaniyatida o'ziga xos o'rinni tutadi va mana shu urf-odatlari bilan bir-biridan ajralib turadi. Urf-odatlar, marosimu bayramlar eng qadimiy davrlardan boshlab inson hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan. Ularsiz xalqlarning hayotini mutlaqo tasavvur etib bo'lmaydi. Masalan, o'zbek xalqi bayramlaridan "Navro'z bayrami", "Hosil bayrami", "Mehrjon bayrami" kabilalar xalq hayotida muhim o'rinni tutadi.

Bayramlar insoniyat hayotida shu qadar mustahkam o'rinni egallaganki, ularni nishonlamaydigan hech bir xalq, oila, jamoa topilmaydi. Shuningdek, har bir millat va elat, xalqnig o'z taraqqiyot tarixi jarayonida shakllangan bayramlari mavjud. O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbek xalqining ham eng qadimiy davrlardan shakllana boshlagan, asrlar bo'yida ajdodlardan-avlodlarga o'tib, bebahohosha aylangan bayramlari ko'p. Bu bayramlarning ma'lum qismi tarixning "sovuj shamollari" [66;186] - bosqinchilar va turli tarixiy shaxslar-hukmdorlar tayziqiga uchrab, nohaq yo'qotilgan, ayrim bayramlar esa qarama-qarshiliklarni

yengib, ko‘pgina fazilatlardan ajralsa-da, butunlay yo‘qolib ketmagan, yana boshqalari esa xalq hayotidan mustahkam o‘rin olib, bizning zamonamizgacha yetib kelgan [66; 186].

U.Qoraboyevning «O‘zbekiston bayramlari» kitobida o‘zbek bayramlarining tarixiga, shakllanish jarayoni, turlari hamda bugungi kunda yurtimizda nishonlanib kelinayotgan bayramlar haqida keng ma’lumot beriladi.

Shulardan mustaqillik bayramini olib ko‘radigan bo‘lsak, bu bayramga tayyorgarlikning o‘ziyoq mamlakatimiz aholisiga katta ko‘tarinkilik ruhini baxsh etadi. Bayram oldidan ko‘cha va xiyobonlar bayramona tus oladi. Shahar, viloyat, Respublika miqyosida nishonlash, ommaviy axborot vositalari orqali vatanimizni madh etuvchi kuy va qo‘schiqlarning yangrashi mamlakatimizda yashovchi har bir kishining qalbida vatanga nisbatan g‘urur, iftixor, mehr-muhabbat hissini uyg‘otadi. Bu bayramda kattalar qatorida bolalar ham ishtirok etishadi. Bayram bolalarga shodu xurramlik ulashish bilan birgalikda, namoyish etiladigan milliy kuy va raqslar, lapar va aytishuvlar, latifa va baxshilik san’ati namunalarini orqali milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishadilar.

Urf-odatlar – kishilarning turmush tarziga singib ketgan, ma’lum muddatda takrorlanib turuvchi, xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan ma’qullangan va qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini tartibga keltirib qo‘yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo‘lish, bayram arafasida kasal, ojiz, qiynalganlardan xabar olish, yordam lozim bo‘lganlarnikiga hasharga borish kabilar o‘zbek xalqining yaxshi urf-odatlaridan hisoblanadi.

Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda marosimlarning ham o‘rni muhim.

Marosim – an’ana va urf-odatning tarkibiy qismi hisoblanib, kishilar hayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan rasmiy va ma’lum kayfiyatda o‘tadigan, ramziy xarakterga ega bo‘lgan tadbirdir. Masalan, ism qo‘yish marosimi, nikohdan o‘tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi va hokazolar.

Xullas, an’analar, bayramlar, urf-odatlar, marosimlar insonning dunyoga kelishidan tortib, to umrining oxirigacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Bolaning dunyoga kelishi, qulog‘iga azon aytish, tish chiqishi, beshikka solish, yurishi, soch olinishi, sunnat to‘yi, uylanish-nikoh to‘yi, payg‘ambar yoshi to‘ylari, yuz yoshi, kumush to‘y, oltin to‘y kabi sanab o‘tilgan marosim-odatlarimizning, boshqacha qilib aytganda, qadriyatlarimizning qirralari nihoyatda ko‘pdir. Xoh oilada bo‘lsin, xoh jamiyatda bu kabi marosimlarning nishonlanishi yoshlar tarbiyasiga ham o‘z ijobiyligi ta’sirini o‘tkazadi. Bu qadriyatlar orqali yoshlar barcha axloqiy xususiyatlarga ega bo‘lib boradi, jumladan mehnatkash, ona tabiatni asrovchi, ota-onaning qadriga yetadigan, ilmli, saxiy, vatani uchun jonini fido qiladigan insonlar bo‘lib yetishadi.

Ayniqsa, umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liq muammolar hozirgi davrga kelib faylasuflar va tadqiqotchilar diqqatini jalb etayotgan mavzulardan biriga aylandi. Faylasuf olimlarimizdan biri Q. Nazarov [58] umuminsoniy qadriyatlarni namoyon bo‘lish xususiyatlarini o‘rganishda quyidagilarga e’tibor berish lozimligini ta’kidlaydi:

- butun insoniyatga xos bo‘lgan tabiiy-tarixiy jihatlar: inson vujudining tirikligi, sihat-salomatlik, ijtimoiy faoliyatga qobiligi, ongi, bilimi, muomala vositasi;
- jamiyat tarixi, o‘tmishi, kelajagi, umrguzaronlikning asosiy talablari, tartiblari, qonun-qoidalari, avloddan-avlodga o‘tadigan an’analar, urf-odatlar, marosimlar va boshqalar;
- jamiyat a’zolarining eng yuksak orzu-umidlari, ezgu-niyatlari, ideallari, g‘oyalari, maqsadlari, ehtiyojlari, qiziqishlari, ular bilan bog‘liq hatti-harakati, faoliyati, o‘zaro munosabatlari;
- madaniyat, ma’naviyat, fan, din, huquq, siyosat, mafkura va ijtimoiy ongning boshqa shakllari bilan bog‘liq yutuqlar, kashfiyotlar, yaratilgan boyliklar, ta’lim-tarbiya va ma’naviy kamolotning yo‘nalishlari, usullari, vositalari;
- ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy ma’naviy, milliy, sinfiy, diniy, irqiy betakrorlik va rang-baranglik, ijtimoiy taraqqiyot va tanazzul, rivojlanishning evolyutsion va revolyutsion yunalishlari;
- insoniyat rivojinining hozirgi davri bilan bog‘daq mintaqalar, ijtimoiy tuzumlar, davlatlar oldida turgan va butun jahon ahamiyatiga molik eng umumiyl olamshumul muammolar, dolzarb vazifalar; keljakning istiqbollari,
- sayyoramiz hududlari, davlatlari va ijtimoiy tuzimlaridan qat’iy nazar, hamma uchun umumiyl foydalanish imkonini beradigan universal texnologiyalar, ishlab chiqarish, boshqarishni taakil qilish, kosmanavtika, kibernetika va boshqa yo‘nalishlardagi umumjahon jamiyatiga ega bo‘lgan jarayonlar.

Umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalash an’analarining ildizlari insoniyat madaniyatining teran manbalariga borib taqaladi. Protagor va Eto - barcha narsalarning o‘lchovi – inson, Suqrot – “qaxramonlik”, “adolatlilik” va shu kabi tushunchalarni aniqladi va umumlashtirdi, Aflatun – “sezgi, iroda va aqlni tarbiyalash”ga e’tiborni qaratdi, Aristotel - jasurlikni, chidamlilikni, adolatlilikni, yuqori intellektuallikni va axloqiy tozalikni tarbiyalashga chaqirgan. Xalqparvar-pedagog Pestolotssi I.G. tarbiyaning boshqa tomonlari bilan birga bolalarda “haqiqiy insonparvarlikni”, “insonlarga nisbatan muhabbatni” tarbiyalashga alohida e’tibor qaratdi.

Umuman olganda muayyan davrda umuminsoniy qadriyatlarni aniq shakllari o‘z ahamiyati, zarurligiga ko‘ra bir-biridan nisbatan farq qiladigan xalqalar yoki bo‘g‘inlardan iborat umumiyl qadriyatlar tizimini hosil qiladi. Kishilar o‘zlarini o‘rab turgan olam, undagi narsa va hodisalarga, hayotdagi voqealarga, boshqalarning faoliyati va o‘zlarini hatti-harakatlariga mazqur tizimda biror o‘rinni egallab turgan qadriyatga mos kelishi yoki kelmasligiga qarab ham munosabatda bo‘ladilar. Shu nuqtai nazardan ularning ahamiyati, zarurligi, foydasi va ziyoniga

xos chegaralarini belgilab oladilar hamda hayotda ana shu chegaralar doirasida faoliyat yuritishga harakat qiladilar.

Umuminsoniy qadriyatlar orasida ularning eng muhim mavqeiga ega bo‘ladiganlari ham bor. Bular: inson vujudining tirikligi, uni ijtimoiyiligi, inson umri va hayoti, sihat-salomatligi, ijtimoiy faoliyati va munosabatlari, mehnati, bilimi, muomalasi va boshqalar.

Umuminsoniy qadriyatlar sifatida tilga olinuvchi ma’naviy va axloqiy qadriyatlar: yaxshilik; nafosat, saxiylik, ezgulik,adolat, or-nomus, vijdon, do’stlik; muhabbat; vatanparvarlik, olıyjanoblik va hokazo kabi qadriyatlar ham mavjudki, ushbu qadriyatlarga nisbatan teskari ma’noni anglatadigan yomonlik, hunuklik, chaqimchilik, g‘iybatchilik, yolg‘on, tengsizlik,adolatsizlik, nafrat, vatanpurufshlik, hiyonat va boshqalar hayotda uchrab turadiki, ular yuqoridagi ijobiy qadriyatlarning qadri baland bo‘lishiga olib keladi.

Bugungi kunda axloqiy qadriyatlar umumilliy qadriyat sifatida tilga olinmoqda. Negaki, axloq jamiyatda yashovchi kishilarni tartib –intizomga chorlovchi mezon hisoblanadi. Ayrim mamlakatlarda sodir bo‘layotgan axloqsizlik holatlarining yuzaga kelishi axloqiy qadriyatlarni yoshlarga o‘rgatishning ayni vaqt ekanligi bildiradi.

Tarbiya bilan bog‘liq muammolar ming afsuslar bo‘lsinkim, aytarli darajada yechimini topayotgani yo‘q (turli diniy oqimlarga ko‘r-ko‘rona ergashib ketishlik, davlatga va jamiyatga yot bo‘lgan turli g‘oyalarga qo‘shilishlik va shu kabilarda nomoyon bo‘lmoqda). Buning haqiqiy sababi o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasining yetishmasligi emas, balki qadriyatlarning yoshlarda to‘g‘ri shakllantirilmayotganligida, ularni talqini jamiyatning barcha a’zolariga, toki quyi qismlarigacha yetib bormayotganlidadir deb bilamiz. Mamlakatimizdagi ta’limning boshqalardan farqi ham shunda, ya’ni barcha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya birday olib boriladi.

Qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta’limning maqsadi esa – tabiat, ijtimoiylik va madaniyat bilan uyg‘un bo‘lgan yaxlit ma’rifatli-madaniyatli insonnni tarbilashdir. Ta’lim jarayoniga tegishli bo‘lgan quyidagi tushunchalarni keltiramiz: insonparvar shaxsni tarbiyalash (hamdard, yaxshilik qiluvchi va boshqalar); erkin mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash (onglilik darajasi yuqori, mustaqil qaror qabul qiluvchi va boshqalar); madaniyatli insonni tarbiyalash (ona tili, xorijiy tillarni, adabiyot, tarixni va boshqalarni biladigan); ijodkor shaxsni tarbiyalash (intellekti rivojlangan, bilim, ko‘nikma va malakalarga ega va boshqalar); ma’naviyati boy shaxsni tarbiyalash (bilimga, go‘zalikka va shu kabilarga bo‘lgan intilish); axloqli shaxsni tarbiyalash (millat va vatan oldidagi burch, vijdon, inson haq-huquqlariga hurmat bilan qarash va shu kabilar).

Bizningcha umuminsoniy qadriyatlar barcha umumiyy o‘rtta ta’lim maktablari predmetlari metodikasining asosi bo‘lishi lozim. Qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta’limning asosiy o‘ziga xosligi

shundan iboratki - u protsessual shakllardan, ya’ni metodika, texnologiya, shakllar va boshqalardan ayri holda taqdim etilishi mumkin emas. Tashqaridan beriladigan standart komponentlardan tashqari, qadriyatlarga yo‘naltirilgan ta’limning mazmunida subyektlararo muomolaga tegishli, ta’lim jarayonidan ajratib bo‘lmaydigan emotsional-qadriyatlar, shaxsiy elementlar ham ishtirok etadi.

Ta’limning alohida funksiyasi shundan iboratki, o‘z mazmuniga ko‘ra, axloqli, ma’naviyatli, estetik didli, iqtisodiyotni tushunadigan, atrofimizdagи olamning ekologik tozaligiga va boshqa tomonlarga e’tibor qiladigan erkin ijodiy fikrlovchi, madaniyatli insonni tarbiyalashning fundamental asoslarini beradi.

Maktab va oila bolaga nafaqat estetik madaniyatni, balki “dunyoviy madaniyatiga” o‘rgatishi lozim. Dunyoviy bilimlarni berish va bu dunyoda munosabatlarni shakllanishi – jamiyatdagi hayotga yosh avlodni tayyorlashga qaratilgan jamiyat va pedagoglar tomonidan tashkil etiladigan ikkita keng ma’noli jarayondir.

Falsafiy va psixologik-pedagogik adabiyotlarni o‘rganib chiqish va tahlil etish shuni ko‘rsatadiki, umuminsoniy qadriyatlar muammosi va uning shaxs tarbiyasidagi o‘rni – nafaqat zamonaviy pedagogika fanidagi muhim bo‘lgan muammolardan biri, balki u jahon maktabi tarixida, Antik va O‘rta asrlardan boshlab yetakchi rolni o‘ynagan. Ammo haligacha tadqiqotchilar qadriyatlar haqida yagona xulosaga kela olganlari yo‘q. Mazkur loyiha ishimizda umuminsoniy qadriyatlar deyilganda - insoniyatning tarixiy tajribasini o‘ziga jo qilgan idealni, belgini, namunani, regulyativ g‘oyani hamda insonning potensialini va intilishini tushunamiz. Har qanday qadriyat insonning hatti harakatida talablar ko‘rinishiga ega va u yaxlit qadriyatlar ekvivalenti guruhida belgilab olinadi.

Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarni umummilliylar qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish uchun madaniy, ma’naviy boyliklar, xalq marosimlari va boshqa namunalari muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi axborot tekniqa va texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ta’lim-tarbiya oldida turgan muhim vazifalardan biri ushbu vositalardan dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda, oila sharoitida, jamoat joylarida keng va samarali foydalanishni tashkil etishdan iboratdir.

1.2. Sharq xalqlari tarixida qadriyatlar muammosining yoritilishi

Har bir millatning ulkan yutug‘i o‘z qadriyatlarini e’zozlashi va uni milliy boylik sifatida e’tirof etishidir. Ammo har bir millatning milliy qadriyati umummilliylar qadriyatlar birligidan tashkil topadi. Qadriyatlar o‘tmishning yutug‘i. Uni to‘la o‘rganish va amal qilish esa hozirgi avlodlarning vazifasidir.

Demak, milliy qadriyatlarni o‘rganish, ularda olg‘a surilgan g‘oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir a’zosining vijdon oldidagi, Vatan oldidagi burchidir. Mustaqil Respublikamiz istiqbolini belgilovchi har bir fuqaroning o‘z burchi va majburiyati mohiyatida ma’naviyat va ahloqiylikni qayta tiklash; o‘zbek halqi asrlar moboynida yaratgan madaniy boyliklarni, noyob tarixiy obidalarni avaylab asrash va kelgusi avlodlarga qoldirish tadbirlarini ko‘rish; qadimiy va zamonaviy xalq qadriyatlarini, adabiyot va san’atni bilish va rivojlantirish; o‘zbek tilini taraqqiy ettirish; boshqa halq vakillarini hurmatlash kabi shartlarni amalga oshirish yotadi.

Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonida milliy va umummiliy qadriyatlardan foydalanishning alohida o‘rni bor. Quyida biz yurtimizning o‘tmish madaniyatida qadriyatlar muammosi qanday ahamiyat kasb etganligi va ilm ahli tomonidan qay tariqa yoritilganligini qisqacha tahlil qilamiz. Qadriyatlar muammosining tarixiy tahlili zaminimizda yaratilgan qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, dostonlarga, ya’ni halq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Xalq og‘zaki ijodida ko‘proq umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor berilgan, ularning mohiyati, mazmuni turlicha talqin qilingan. Spetamen, Alpomish, To‘maris va Shiroq to‘g‘risidagi dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyilik ruhi badiiy tasvirlangan. Bu dostonlarni qadimgi yunonlarning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari bilan qiyoslash mumkin. Qadimgi odamlar borliq to‘g‘risida o‘ylaganlarida, afsona, hikoyat yoki dostonlar so‘ylaganlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma’nosи, mazmuni, maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarga izoh bergenlar, hatto ularning ba’zilarini ilohiylashtirganlar.

Qadriyatlar mavzusi diniy dunyoqarashlar va ularning eng qadimgi shakllarida ham o‘z aksini topgan, har bir din o‘ziga hos ilohiy qadriyatlar tizimiga ega. Ular bir-birlaridan ana shu qadriyatlar tizimi bilan ham farqdanadi. Milliy va jahon dinlarining asosiy kitoblari Qur’on, Injil, Veda, Upanishad va boshqalarda muayyan ilohiy qadriyat tizimlari o‘z ifodasini topgan. Dinlarning tarixiy shakllari takomillashib borgani sari, ulardagi qadriyatlar tizimi ham yangi qirralarini namoyon qilib boravergan.

Ajdodlarimizning qadimgi kitobi Avesto [13;400] diniy-falsafiy merosimizning eng yorqin namunasi, qadimgi halqlarimizning umummilliy qadriyatlari yoritib berilgan asardir. Avesto zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lganligidan, unda bu dinning qadriyatlar tizimi o‘z ifodasini topgan. Shu bilan birga kitobda umummilliy qadriyatlarga, ularning inson ma’naviyati va amaliy faoliyati uchun ahamiyatiga katta o‘rin berilgan. Asarda yaxshilik, barkamollik, hurfikrlilik, insonparvarlik kabi hislatlar Ahuramazda qiyofasi orqali ko‘rsatilgan. Kitob mualliflaridan biri Zaratushra (Zardusht) fikricha, odamlar yaxshilik, yorug‘lik kuchlariga ergashishi, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni haqsizliqdan farqlab olishi, hayoti davomida

Ahuramazda tomonida bo‘lishi lozim. Insonning bu jarayondagi qadri esa, yaxshilikning g‘alabasi uchun kurashda befarq turmasligida, yashash tarzida, ma’naviy qiyofasida, ijtimoiy faoliyatida o‘z ifodasini topadi.

Avestoda yurtimiz zaminida yashagan halqlarning islomgacha bo‘lgan davrdagi tabiiy-ilmiy, ayniqsa, axloqiy qadriyatlarining rivojlanishi tarixiga oid g‘oyat qiziq manbalar borki, ularni yanada chuqr o‘rganish lozim.

Markaziy Osiyoda qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlar rivojida VIII-XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosi amalga oshirilgan, islom rasmiy hukmron dinga aylangan, ijtimoiy-siyosiy hayotda muayyan tinchlik hukm surayotgan edi.

Islom dini Osiyoda faqat arablarning dini bo‘lib qolmadi, u ko‘pgina sharq halqlarining ham umumiyligi diniga aylandi. Alovida e’tirof etish kerakki, Qur’onda [67;617] ta’riflab berilgan ilohiy qadriyatlar halqlarimiz tarixi va madaniyatiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatgan. Bu ta’sirning ahamiyatini turlicha baholash, tahlil qilish mumkin, ammo uning o‘tmishda ham, hozir ham muayyan qadrga ega ekanligini inkor qilishning iloji yo‘q. Zaminimizda yashagan har bir mutafakkir, olim, alloma ijodida islom dini ilohiy qadriyatlarining ta’siri yaqqol sezilib turadi. Shu bilan birga islomning yurtimizda tarqalishi va arab istilosi davrida ko‘pgina milliy qadriyatlarimizning yo‘qotib yuborilganligini alovida qayd qilmoq kerak. Bu to‘g‘rida Beruniy “Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar” [23;488] asarida afsus bilan yozib qoldirgan.

Kezi kelganda yana shuni alohida ta’qidlash kerakki, vatanimiz sivilizatsiyasining qadriyatları arablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta aks ta’sir ko‘rsatganligi shubhasiz. Abu Nasr Forobi [27; 224], Beruniy [23; 488], Ibn-Sino [27; 182] kabi mutafakkirlar, al-Buxoriy [14; 550], at-Termiziy [49; 478] kabi ilohiyot ilmining zabardast allomalari Navoiy [36; 389], Bobur [16; 286] kabi zotlarning kamolotida nafaqat islom, balki sivilizatsiyamiz madaniyati va qadriyatlarining ta’siri beqiyos. Ularning islomga, uni zamona zayllari orasidan o‘tishi jarayoniga ta’sirlari to‘g‘risida maxsus tadqiqotlar olib borish mumkin. Zamnaviy islom ilohiyotchilarining al-Buxoriy [14; 550] asarlarini Qur’ondan keyingi muqaddas kitoblar sifatida tan olayotganliklari, al-Buxoriy, at-Termiziy, Yassaviy va Naqshbandning qabrlariga muqaddas sajdahohlar sifatida sig‘inislari beziz emas! Manbalar yetarli bo‘lishiga qaramasdan yurtimiz sivilizatsiyasining islom dini rivojiga va azaliy islom mamlakatlarining madaniyati taraqqiyotiga aks ta’siri to‘g‘risida yozilgan asarlar haligacha yetarli emas, bu to‘g‘rida tadqiqotlar olib borish zaruriyati allaqachon yetilgan.

Islom dini yurtimizga kirib kelganidan keyingi davrlarda ichki urushlar nisbatan barham topgan, ijtimoiy hayotda nisbatan barqarorlik hukm surayotgan edi. Bu nisbiy barqarorlik davrida madaniy rivojlanish, ilm-fan hamda adabiyotning taraqqiyoti uchun imkoniyat ochildi. O‘sha davrning buyuk mutafakkirlaridan biri Muhammad Muso al-Horazmiy [49;478] xalifa al-

Ma'mun tashkil qilgan "Baytul hikma"da katta mavqega ega bo'lgan. U ilgari surgan g'oyalarda qadriyatlarning umummilliy jihatlari izohlangan.

Sharq madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan alloma Abu Nasr Forobiy [21; 224] ham qadriyatlarga katta e'tibor bergan. Forobiyning qadriyatlar to'g'risidagi fikrlarini "Madina al-fozila" ta'limotida yaqqol kuzatish mumkin. Qomusiy olim sifatida Forobiy fozil jamiyat to'g'risidagi ta'limotida yuksak g'oyalar,adolatli ijtimoiy munosabatlar qaror topgan davrda vujudga keladigan ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarning umumiylizimini izohlab bergan. Forobiy bunday jamiyatda diniy qadriyatlar ham muayyan ahamiyatga ega bo'lishini, ammo unda kalom (teologiya) va fiqh (huquqshunoslik) vakillari kishilarning ma'naviy-ahloqiy kamoloti uchun javob beradigan sohalarni boshqarishlari, ijtimoiy munosabatlarning asosiy sohalari esa faylasuf-hukmdorlar tomonidan boshqarib borilishini ta'kidlaydi. Mutafakkir diniy qarashlar g'oyaviy sohada eng asosiy ahamiyat kasb etgan o'sha davrda, nafaqat Alloh g'oyasini, balki inson, jamiyat va ilm-fan qadriyatlarini falsafiy bilimlarning asosiy mavzularidan biri sifatida qaray olgan dastlabki Sharq faylasuflaridan biridir.

Qadriyatlar mavzusi Abu Rayhon Beruniy [17; 488] ning ham diqqat markazida bo'lgan. Uning fikricha, ma'naviy qadriyatlarning vujudga kelishi ijtimoiy munosabatlar, kishilarning yashash tarzi, moddiy ehtiyojlari, qiziqishlari, manfaatlari, talablari va maqsadlari bilan uzviy bog'langan. Masalan, kishilar o'rtasidagi hamkorlik odamlarning birlashish ehtiyojlari ko'pligi, himoya qilish qurollari kamligi va dushmanlardan o'zini himoya qilish zarurati tufayli vujudga kelgan. Beruniy hunar, savdo-sotiq, mamlakatlararo madaniy-ilmiy aloqalarni kuchaytirish, ijtimoiy hayotda ilm-fanni rivojlantirish, uning rolini oshirishning tarafdori edi. Shu bilan birga u arab bosqinchiligini, ularning yurtimiz madaniy yodgorliklarini yo'qotish sohasidagi siyosatini qoralaydi, madaniy taraqqiyotda vorislikning zaruriy ekanligini ta'kidlaydi.

Qadriyatlar muammosi Abu Ali Ibn Sino asarlarida [27; 182] ham ko'zga tashlanadi. Olim asarlarining katta qismi falsafiy muammolarga bag'ishlab yozilgan, afsuski, ularning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan. Qadriyatlar muammosi Ibn Sinoning "Donishnama", "Solomon va Ibsol" kabi bizgacha yetib kelgan asarlarida o'z ifodasini topgan. Uning nazarida o'z ibtidosini Allohdan olgan borliq va tabiat insonni o'rab turuvchi abadiy makondir. Shu jihatdan uning qadri beqiyos, inson esa hamma boyliklarni tabiatdan oladi, undan o'ziga davo topadi.

O'rta asrlardagi siyosiy qadriyatlar talqinida Amir Temurning, umummilliy qadriyatlarning ilmiy tahlilida Ulug'bekning qarashlari katta o'rinni tutadi. Podshohlar, hukmdor va siyosiy arboblarning ahloq-odob talablari, davlat va siyosat yuritish san'ati bayon qilingan "Temur tuzuklari"da [15; 64] ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarga katta ahamiyat berilgan. Unda o'sha davr hokimiyati uchun asosiy masala bo'lgan siyosiy qadriyatlar zamon nuqtai nazaridan bayon qilingan. Temurning tariximizdagi o'rni va mamlakatni ozod qilishdagi xizmati katta. Uning

mohir davlat arbobi, tajribali siyosatchi sifatidagi o‘git va nasihatlari keyinga davrning siyosiy arboblari uchun qo‘llanma-qadriyat bo‘lib xizmat qiladi.

Yurtimiz madaniyatida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy [36;389] o‘zining asarlarida qadriyatlar masalasiga katta e’tibor bergan. Uning fikrlari ham tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq. Ushbu ta’limot faqat Navoiy emas, balki Sa’diy, Jomiy kabi boshqa o‘rtas asr mutafakkirlarining qarashlariga ham ta’sir ko‘rsatgan.

Navoiyning odil jamiyat to‘g‘risidagi qarashlarida umummilliylar, umumijtimoiy qadriyatlar tizimi, komil inson ta’limotida esa eng yetuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ta’riflangan, bunda qadriyatlar tizimining aloqadorligi yaqqol ko‘rinib turadi. Mutafakkirning ma’naviy qadriyatlar to‘grisidagi g‘oyalari bugungi mustqillik sharoitida katta ahamiyat kasb etmoqda.

XIX asrning oxirlari va XX asr boshlarida yurtimizda “qadimlar” va “jadidlar” oqimlari vujudga keldi. Hayotda ro‘y berayotgan turli o‘zgarishlarni o‘rganish, umummilliylar qadriyatlarimizni jahon taraqqiyoti talablari nuqtai nazaridan tahlil qilish borasida Ismoilbey Gaspirali, M. Behbudiy, So‘fizoda, Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Fitrat kabi ilg‘or kishilar katta yutuqlarga erishdilar. Qadriyatlar bilan bog‘liq muammolar jadidlarning diqqat marqazida turgan, ular sharqona qadriyatlarning tahlili borasida ham qimmathi fikrlarni bayon qilganlar. Bu borada Abdulla Avloniy [12; 160] alohida o‘rin tutadi. Uning “Turkiy guliston yohud ahloq” kitobida o‘ziga hos ma’naviy qadriyatlar tizimi ta’riflab berilgan. Asarda fatonat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, shijoat, qanoat, ilm, sabr, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni sevmoq, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok, lafz, iqtisod, viqor, itoat, sadoqat,adolat, muhabbat, avf kabi qadriyatlar – “yahshi xulqlar” degan umumiyl nom ostida tahlil qilinadi. “Yomon xulqlar”ga esa g‘azab, jaholat, razolat, adovat, qasosat, g‘iybat, haqorat, hasad, zulm kabi hususiyatlar misol bo‘ladi. Agar ushbu asarda tilga olingan qadriyat nomlariga diqqat qilinsa, o‘sha davrda yurtimizda ma’naviy tushunchalarning ko‘lami qanchalik keng bo‘lganligini, tilimizning naqadar boyligini kuzatish mumkin. Yuqoridaq atamalar orasida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan tushunchalarga duch kelamiz. Tarixning g‘ildiragi g‘ayri turkiy aylanib, bizni necha o‘nlab yillar ulkan merosimizdan judo kilgani, rasmiy ma’naviyat sohasini sharqona qadriyatlar tizimi emas, balki quruq shiorlar egallab olganligi kishini achintiradi xolos. “Turkiy guliston yohud axloq” [12; 160] darslik sifatida bitilgan va unda sharqona ta’lim-tarbiyaning mazmuni, asosiy talablari ham ta’riflab berilgan bo‘lib, bu kitob halqlarimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta’sir qo‘rsatishi mumkin edi. Afsuski, o‘tgan asrning 30-yillarda boshlangan siyosiy jarayonlar Avloniyalar avlodining boy merosini o‘z domiga tortdi. Kitobning taqdiri ham shunday kechdi, u ta’qiqlab qo‘yildi, hatto kutubxonalardan ham topish qiyin bo‘lib qoldi. Faqat respublikamiz mustaqil

bo‘lganidan keyingina uni chop etish imkoni tug‘ildi. Ana shunga o‘xhash fikrni M. Behbudiy, Cho‘pon, Fitratlarning asarlari to‘g‘risida ham aytish mumkin.

Demak, yurtimizda umumilliy va milliy qadriyatlar mavzusi o‘zining o‘tmishiga ega, uning ildizlari esa qadim zamonalarga borib taqaladi. Qadriyatshunoslik tarixining asl durdonalari nafaqat G‘arbdan, balki Sharqdan ham qidirilmog‘i lozim.

1.3. Ta’lim jarayonida umummilliylar qadriyatlardan foydalanishning mavjud ahvoli

O‘zbekiston yoshlarining ma’naviy qiyofasi va umummilliylar qadriyatlarga xos tarbiyasi oila, ta’lim maskanlari va jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ulkan ishlar natijasida shakllanadi.

Agar yoshlarimizning umummilliylar qadriyatlardan sohasidagi bilimlari sayoz, tushunchalari yetarli bo‘lmasa, ularning so‘zлari va amaliy faoliyatları o‘rtasida uzilish bo‘lsa, hozirgi davrda ta’lim-tarbiya sohasida kun tartibiga qo‘yilayotgan vazifalarni samarali bajara olmaymiz. Million yillar, kecha va bugun yaratilgan yoki qabul qilingan qadriyatlardan yoshlarimizga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda, yoshlarimiz shu ruhida tarbiyalanganmi, umuman ularning qadriyatlarga munosabati qanday kabi savollar bizni qiziqtirdi va olib boradigan tadqiqotlarimiz uchun ushbu savollar asos bo‘lib xizmat qildi, ya’ni, yoshlarni umummilliylar qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish dasturini ishlab chiqish imkonini berdi. Dastur haqida keyingi bobda fikr yuritamiz.

Yoshlarni umummilliylar qadriyatlardan shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini o‘rganishga yo‘naltirilgan mazkur tadqiqot ishi uchun Qarshi davlat universiteti Pedagogika fakulteti tajriba maydoni sifatida tanlandi.

Tajriba-sinov ishlari 2014-2016 yillarda ikki bosqichda amalga oshirildi. Dastlabki bosqich, ya’ni 2014-2015 yillarda o‘rganuvchi tajriba tashkil etilib, talabalarning umummilliylar qadriyatlardan haqidagi bilimlari darajalari va ularga amal qilishining mavjud holati tahlil etildi. Bunda, avvalo, tajriba-sinov maydonida Pedagogika fakulteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasini bilan o‘zaro hamkorlik asosida Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarining bilimlari, qiziqishlari, ular tomonidan qo‘lga kiritilayotgan yutuq va faoliyatlarida yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar aniqlandi hamda tahlil qilindi.

Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish standarti, o‘quv rejasi va o‘quv dasturlari tahlil qilinib, ularning bevosa mazmuni o‘rganildi.

O‘rganish natijalari bugungi kunda talabalarning o‘qish va tarbiyaviy faoliyatlarini, ularning samaradorlik darajasi borasida muayyan xulosalarga kelish imkonini berdi. Quyida ana shular xususida so‘z yuritamiz.

1. Ta’lim mazmunini aks ettiruvchi hujjat: o‘quv rejada qadriyatlar, umummilliy qadriyatlar muammosini o‘rganish ayrim fanlar (falsafa, ma’naviyat asoslari, milliy g‘oya) negizida o‘qitilishi, unda ham kam soatlar ajratilganligi ma’lum bo‘ldi. Ushbu holat qadriyatlarni talabalarga o‘rgatish ishida muntazamlik, tizimlilik va ilmiylik mavjud emasligini ko‘rsatdi.

2. Negadir talabalar faoliyatida tashabbuskorlikning yetishmasligi, befarqlik, loqaydlik, shuningdek, doimiy ravishda o‘z ustilarida ishlari uchun aniq ish rejasiga ega emasligi kuzatildi. Ushbu holat afsuski, talabalarda biz tanlagan mavzuga nisbatan qiziqishlarining past darajada ekanligidan dalolat beradi.

3. Zero, mamlakatimizda yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish dolzarb muammolardan biri ekan, avvalo yoshlarni qadriyatlar haqidagi bilimlar bilan qurollantirishimiz, kasbiy fanlar negiziga ham qadriyatlarni o‘gatishga alohida e’tibor berishimiz lozim. Bu holat ma’lum vaqt hamda shart-sharoitlar mavjudligini taqozo etadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida qadriyatlar, uning asoslari to‘g‘risida ma’lumotlar beruvchi ko‘plab manbalar yaratildi. Bu yo‘nalishda falsafa, pedagogika, tibbiyot, adabiyot, tarix, milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari, madaniyatshunoslik kabi fanlar bo‘yicha tadqiqotchi olimlar ilmiy ishlar olib bordilar. Jumladan, faylasuf olimlardan I.Mo‘minov, J.Tulenov, S.SHermuhamedov, E.Yusupov, Z.G‘ofurov, X.Shayxova, M.Xolmatova, F.Ismoilov, S.Otamurodov, M.Imomnazarovlarning asarlarida qadriyatlar, milliy qadriyatlar vositasida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va tarbiyalash masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berildi.

Har tomonlama sog‘lom – komil insonni tarbiyalab voyaga yetkazish muammosini tadqiq etishda pedagog va psixolog olimlarimizning ham xizmatlari beqiyosdir. Jumladan, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Quronov, M.Inomova, N. Oripovalar ushbu muammoning pedagogik va psixologik jihatlarini oolib bergenlar. O.Musurmonova tomonidan ilk bor yoshlar ma’naviy madaniyatini tarbiyalashda ma’naviy qadriyatlarning o‘rni va mohiyati ilmiy pedagogik jihatdan ishlab chiqilgan bo‘lsa, M.Inomova oilada yoshlarni ma’naviy tarbiyalashning ilmiy pedagogik asoslarini, S.Nishonova esa, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash masalalarini Sharq mutaffakirlari g‘oya va qarashlari asosida tadqiq etgan.

Dastlabki tajriba davrida talabalarni imkon qadar ushbu olimlarning tadqiqotlari bilan tanishtirib borish, ularning mazmuni, tarkibiy asoslari borasidagi ma’lumotlarni beruvchi aniq manbalar bilan ta’minlash zarurligi ma’lum bo‘ldi.

O‘rganuvchi tajriba davrida biz talabalarning biz tanlagan mavzuga nisbatan bilimlarini aniqlash uchun kirish va chiqish testlari bo‘yicha baholash mexanizmini ishlab chiqdik. Kirish va chiqish testlari bo‘yicha talabalarning javoblari quyidagi mezonlarga muvofiq baholandi:

- 1) 86 va undan yuqori ball – yuqori daraja (“5” baho);
- 2) 71-85 ball – o‘rtacha daraja (“4” baho);
- 3) 56-70 ball – past daraja (“3” baho);
- 4) 55 va undan past ball – qoniqarsiz daraja (“2” baho).

Tajriba-sinov ishlari 56 nafar 3-kurs talabalar va 50 nafar 1-kurs talabalar ishtirokida o‘tkazildi. Bunda biz kirish testi (ilova-1) natijalarini tahlil qilish orqali quyidagi ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldik. Kirish testi savollari biz ishlab chiqqan mezon doirasida bo‘lishiga alohida e’tiborni qaratdik.

Kirish testi natijalari. 1.3.1-jadval.

Baho ko‘rsat kichlari	Tajriba guruhi (50 нафар)		Nazorat guruhi (56 нафар)	Foiz
“5”	3	6 %	4	7,1%
“4”	5	10 %	6	10,7%
“3”	38	76%	43	76,7%
“2”	4	8%	3	5,3%

Kirish test sinovi natijalarining tahliliga ko‘ra talabalar qadriyatlar haqida tizimli ma’lumotga ega emaslar. Ular qadriyat tushunchasi va uning turlari, qadriyatlarning mohiyati haqida yuzaki ma’lumotga egalar. Ayniqsa, bugungi kunda qadriyatlar faqat o‘tmishda muhim ahamiyat kasb etib qolmasdan, balki hozirgi va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy-ma’naviy, tabiiy, diniy-axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar ekanligini anglamayaptilar.

Talabalarning milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi savollarga to‘liq javob bera olmaganliklarining asosiy sababi bu sohada adabiyotlar bilan tanish emasliklari, o‘z ustida ishlasmasliklari bilan izohlanadi. Afsuski, mazkur kamchiliklar yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik tadbirlar samaradorligining quyi darajaga tushib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, o‘rganuvchi tajriba chog‘ida talabalar orasida og‘zaki so‘rovlar (Illova-2) tashkil etilib, ularning ehtiyojlari, o‘qish jarayonida duch kelayotgan muammolar hamda qiziqtirayotgan mavzularni aniqlashga e’tibor qaratdik. So‘rov natijalari ham mavjud sharoitda talabalarning bilim darajalari yuqori deya baholash mumkin emasligini tasdiqladi.

Jumladan,

1. “Talabalik davringizda universitet kutubxonasidan qadriyatlargaga oid kitoblarni olganmisiz?” degan savolga talabalar bir ovozdan “yo‘q” javobini qaytarishdi. (92 nafar talaba). Bu borada ko‘philik talabalar o‘qitiladigan fanlardan kitoblarni olganliklarini e’tirof etishdi. Ayrim talabalar kutubxonada kitoblar yetishmasligini ham aytib o‘tishdi. Bu savolning javobini qoniqarsiz deb baholasakda, ammo bizni quvontirgan narsa talabalar savolgaadolat nuqtai-nazaridan yondoshishdi.

2. 72 % talaba ular tarbiyasida qadriyatlarning roli muhim deb hisoblasalar, 28 % talaba bunda kasbiy fanlar yetakchilik qiladi, degan javobni qaytarishdi.

3. Ushbu savol yuzasidan talabalarning 76 % i qadriyatlarni o‘rganishga yanada ko‘proq soat ajratilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi, deb hisoblasalar, 24 % talaba esa ta’lim jarayonida olayotgan bilimlari yetarli deb hisobladilar.

4. Navbatdagi savol yuzasidan qaytarilgan javoblarning 100 % ida ham ya’ni talaba shaxsini yuksaltirishda oila, o‘quv yurti, mahalla va jamoatchilik hamkorligi bo‘lishi kerak degan javobni qaytarishdi.

5. Ushbu savol yuzasidan ya’ni tarbiya haqidagi allomalarning fikrlaridan misol keltiring savoliga 36 % talaba yaxshi javob qaytarishgan. Afsuski, 54 % talabalarning javoblarida aniq misollar kuzatilmadi.

6. Bu savolga talabalarning ko‘philigi 57 % i ularning sevimli mashg‘uloti televizor ko‘rish ekanligini ta’kidlashsa, 12 % internetdan foydalanishni, qolgan 31 % talaba esa o‘rtoqlari va oila a’zolari bilan gaplashishni yaxshi ko‘rishini ta’kidlashgan.

7. A’lo yoki yaxshi bahoga o‘qish sizga nima uchun kerak, savoliga talabalarning 87 % moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun degan bo‘lsa, 13 % yaxshi mutaxassis bo‘lish uchun deb fikr bildirishdi.

Javoblar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarimiz hamon o‘zlarining hayotiy maqsadlarini to‘liq anglamayaptilar. Biz kuzatgan darslarda shuni kuzatdikki, talabalarimizda mustaqil fikrlash, o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonch, tashabbuskorlik yetishmaydi. Bu holat ularning kasbiy tayyorgarliklari ham qoniqarsiz ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda o‘quv jarayoniga yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishga to’sqinlik qilayotgan omillar quyidagilardan iborat deb hisobladik.

Qadriyatlarni o‘rganishga to‘sqinlik qiluvchi omillar

1.3.1-jadval.

<i>Omissar</i>	
1.	Talabalarda umummilliy qadriyatlarni o‘rganishga shaxsiy qiziqishning pastligi
2.	Ta’lim beruvchilarda ham bu borada nazariy bilimlarining etishmasligi
2.	O‘quv rejasidagi ijtimoiy-gumanitar fanlar negizida qadriyatlarni o‘rganishga kam
3.	O‘qitiladigan fanlar bo‘yicha o‘quv va metodik qo’llannmalar, tavsiyalarning etishma
4.	Bugungi kun talabalarini moddiyliklar ko‘proq qiziqtirayotganligi va boshqalar.

Tevalarak-atrofni ozoda saqlash, moddiy va tabiiy boyliklarni asrab-avaylash, burch va mas’uliyatni his etish talabalarimizda umummilliy qadriyatlarga hurmatni his etishlari uchun ko‘maklashadi. Ayniqsa, mamlakatimiz Prezidenti va hukumatimiz yoshamiz uchun shunday ko‘rkam, zamonaviy, har tomonlama qulay binolar, axborot resur markazlari, sport majmualari, yotoqxonalar, dam olish maskanlarini barpo etib berayotgan bir paytda yoshamiz ularni asrab-avaylashga burchlidirlar.

Shu boisdan biz tajriba-sinov ishlarini davom ettirib, fakultet talabalarining amaliy faoliyatlarini: tevarak-atrof, tabiat, fakultet va universitet ozodaligi, qishloq-xo‘jalik ishlariga munosabatlarini kuzatish va o‘rganishga harakat qildik. Kuzatish ishlarini bir necha xafka davomida amalga oshirdik. Bu ishlar 2015 yil mart oyida olib borildi. Negaki, mart oyida ayni obodonlashtirish ishlari boshlanib, bunga talabalarimizning ishtirokini bilishimiz biz uchun zarur edi. Afsuski, bu tadqiqot natijasini olish uchun bizga birgina kuzatish olib borishning o‘zi kifoya qildi. Masalan, talabalarimiz tomonidan o‘quv xonalariga qog‘oz, baklashka kabilarning tashlab ketilishi yoki ularni ko‘rganda ham befarq, loqayd o‘tib ketish holatlari uchradi. Eng achinarlisi fakultetga ko‘rk bag‘ishlab turgan tuvakdagi gullarga biron ta laba suv qo‘yib, to‘prog‘ini yumshatmadidi. Afsuski, talabalarimiz tomonidan yo‘l qo‘yilayotgan bunday kamchiliklarni yana sanab o‘tishimiz mumkin. Bu bilan biz barcha talabalarimizni tanqid ostiga olmoqchi emasmiz. Gap ayrim talabalar haqida bormoqda. Holatni o‘rganib, uning asl sababini bilmoqchimiz xolos. Ushbu kamchiliklar kundalik hayotimizda tez-tez uchrab turadi, biroq bu yoshamizda befarqlik, mas’uliyatsizlik, ko‘pchilik mulkini qadrlamaslik, boshqalar mehnatiga nolisand qarash kayfiyatini hosil qiladi. Bunga talabalarimizning munosabatlari qanday ekan, yana tajribamizga jalb qilingan 3-kurs talabalariga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keldi. Talabalar bu suhbatda erkin ishtirok etdilar. Suhbat vaqtida jamoatchi, faol talabardan Keldiyorova Vazira, Avloqulova Hafiza, Yaxshiboyeva Sitoralar ishtirok etib, yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklarga o‘z munosabatlarini bildirdilar. Ya’ni talabalarimiz bo‘lg‘usi pedagog sifatida ayrim talabalarimiz faoliyatlarini tanqid qilishdi. Fakultet binosi, universitet hududi ozoligi va obodonlashtirish uchun har bir talaba mas’ul bo‘lishi kerak, degan qaror bilan suhbatni yakunladik. Biz mavjud holatni o‘raganish va tahlil qilish natijasida talabalarini umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini

shakllantirish mezonini ishlab chiqdik. Keyingi boblarda amalga oshiradigan ishlarimizda mana shu mezonlarga asoslanishga qaror qildik.

Birinchi bob yuzasidan xulosa

1. O‘rganilgan va tahlil qilingan nazariy ma’ulumotlar shundan dalolat beradiki, talabalar umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzARB muammolardan biridir.

2. Talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni shakllantirishda xalq og‘zaki ijodi, yozma manbalar, Sharq mutafakkirlari merosining juda katta pedagogik imkoniyatlarga egaligi tadqiqotda o‘z isbotini topdi.

3. Biz tanlagan va qo‘llagan pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari: kuzatish, savol-javob, anketa so‘rovlari, turli yozma ishlar, pedagogik tajriba ishlari talabalarda umummilliy qadriyatlar vositasida umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarning tarbiyalanganlik darajasining amaldagi holatiga doir xilma-xil va maqsadga yo‘naltirilgan axborotlarni to‘plashga imkon berdi.

4. Talabalarning umummilliy qadriyatlarga os sifatlarni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun uning manba va vositalarini belgilash zaruriyati mavjudligi aniqlandi.

5. Talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni shakllantirishning o‘ziga xos tizimini vujudga keltirish zarurligi kuzatilmogda.

6. Ishlab chiqilgan mezon asosida talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirish tizimini ishlab chiqish zarurati mavjudligi kuzatildi.

II BOB. Yoshlarni umummilliy qadriyatlаримизга xos tarbiyasini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari

2.2. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish dasturi va texnologiyasi

Bugun qay bir sohaga nazar tashlamaylik, u zamonaviylik, o‘ziga xoslikni talab qilmoqda. Xuddi shuningdek, pedagogik jarayon ham ushbu talabdan mustasno emas. Ayniqsa, shiddatkor zamonda voyaga yetayotgan yoshlarimiz ehtiyoj va qiziqishlarining cheki va chegarasi yo‘q. Negaki ular fan-texnika yuksalib borayotgan, axborotlar yashin tezligida tarqalayotgan, shuningdek, inson ongi va ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ko‘payayotgan bir davrda yashamoqdalar.

Demak, biz pedagoglar bugun yoshlarimizning ehtiyoj va qiziqishlariga mos dasturlarni ishlab chiqishimiz, ta’lim-tarbiya jarayonida samarali usul va metodlardan foydalanib, ko‘zlagan maqsadimizga erishishimiz mumkin. Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, ta’lim-tarbiya jarayonida bir xillilikdan foydalanish talabalarni o‘qishdan bezdirib, ularda befarqlik, beparvolik kayfiyatini o‘yg‘otadi. Ushbu befarqlik ularning kelajakdagi faoliyatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ya’ni bunday tarbiya topgan talaba zukko, qobiliyatli, tashabbuskor o‘qituvchi bo‘la olmaydi. Ayniqsa, u kasbiy mahoratni puxta egallamaganligi bois faoliyati jarayonida qiyinchiliklarga duch keladi. Shu bois biz pedagoglar nafaqat yaxshi mutaxassis, balki, zamonaviy usul va vositalardan foydalana bilish ko‘rikmasiga ega bo‘lishimiz darkor.

Ana shu jihatlarni hisobga olganda biz tadqiq etayotgan muammo yuzasidan talabalarning o‘quv mashg‘ulotlariga qizishlarini oshirishda quyidagi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bular sirasiga quyidagilarni kiritamiz:

1. Videoproyektor;
2. Elektron doska;
3. Didaktik materillar;
4. Kompyuter;
5. Lingafon;
6. Laboratoriya uskunalar;
7. Darsning texnologik xaritasi;
8. Elyustratsiyalar;
9. Darslik, o‘quv qo‘llanma va boshqalar.

Boshqacha qilib aytganimizda ushbu vositalar o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Demak, ularning vazifalari quyidagilar bilan izohlanadi:

1. Ta’limning texnik vositalar - o‘quv materialini ko‘rgazmali namoyish etish, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; o‘quvchilarga o‘quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.
2. Yordamchi ta’lim vositalari – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

3. O‘quv - uslubiy materiallar – darslik, o‘quv materiallar, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o‘quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Yoshlarning umummilliy qadriyatlargacha xos tarbiyasini shakllantirishda o‘qituvchidan ham bir qancha xususiyat egasi bo‘lishlik talab etiladi. Bular:

1. O‘z kasbi, dars berayotgan fani bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi;
2. Qadriyatlar nazariyasi va ularning inson hayotida tutgan o‘rni bilishi,
3. Axborot texnologiyalaridan foydalana olish ko‘nikmasi;
4. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi to‘g‘risida bilim va ulardan foydalana olish ko‘nikmasiga;
5. Pedagogik mahoratni egallagan bo‘lishi kabilar.

Bizga ma’lumki, talabalar asosiy bilimlarni o‘quv mashg‘ulotlarida oladilar. Shu bois o‘qituvchining pedagogik mahorati, qobiliyati, bilim darajasi darsda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi tashkil etadigan dars mashg‘ulotiga jiddiy tayyorgarlik bilan kirishi, uni san’at asariga aylantira olishi darkor.

Bizga ma’lumki, har qanday darsning muvaffaqiyati uning maqsadi bilan belgilanadi. Shunga muvofiq umummilliy qadriyatlargacha asoslangan darslarning kafolatli natijaga erishish uchun maqsad ilmiy-metodik talablarga muvofiq aniq qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Bunda maqsadni quyidagicha qo‘yishni tavsiya etamiz:

- darsning turi, xususiyatidan kelib chiqib, yoshlarni umummilliy qadriyatlargacha xos tarbiyasini shakllantirishda o‘qituvchining maqsadi;
- o‘rganiladigan bilim mazmuniga muvofiq maqsad;
- o‘quvchining bilish faoliyatini rivvojlantirishga qaratilgan maqsad;
- o‘quvchining individual-psixologik, intellektual va shaxsiy rivojlantirishga qaratilgan maqsad.

Shuningdek, umummilliy qadriyatlarni o‘rgatishga qaratilgan zamonaviy darsning samaradorligi o‘quv-meyoriy hujjalari o‘ratasidagi mutanosiblik: davlat ta’lim standartlari, dastur, darslik, o‘quv-metodik majmular orasidagi uzluksizlikka ham bog‘liqdir. O‘qituvchilar orasidagi uzluksizlikni ta’minlab boruvchi xodimlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchilar ham zamonaviy darslarni tashkil etishda o‘quv-meyoriy hujjalari bilan yaqindan tanishgan, puxta o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, har bir o‘qituvchi pedagog hisoblanadi. Ya’ni u nafaqat ta’lim beradi, balki tarbiyalaydi ham. Shu bois ustozlar nafaqat talabalarga qadriyatlar to‘g‘risida bilimlar berishi, balki unga amal qilishni ham o‘rgatib borishi darkor.

Shunday qilib oliy ta'lif jarayonida yoshlarni umummilliy qadriyatlargaga xos tarbiyasini shakllantirish xususiyatlari quyidagicha namoyon bo'ldi:

1. Talabalarni umummilliy qadriyatlargaga xos tarbiyasini shakllantirishda ular e'tiborini, albatta bir millatning ikkinchi bir millatdan farq qiladigan urf-odatlari, millatiga xos xususiyatlariga emas, balki turli millat vakillarini bir maqsad uchun birlashtiradigan va yaqinlashtiradigan umummilliy qadriyatlargaga qaratish.

2. Talabalarni millatlararo hamkorlik ruhidagi tarbiyalashga bag'ishlangan mashg'ulotlarda turli millat xalqlarining hayotidan misollar keltirish bilan mamlakatimizdagi tinchlik, farovonlik, ahillik borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar, davlat siyosati bilan tanishtirish hamda talabalarda shukronalik hissini tarkib toptirish.

3. Dunyodagi barcha millat xalqlari uchun qadrli bo'lgan ma'naviy va moddiy qadriyatlar to'g'risida talabalarga bilim va tushunchalar berish hamda ularni asrab-avaylashga o'rnatish. Masalan, Amur Temur barpo etgan tarixiy obidalar, turli sajdah joylar, Misr ehromlari, Tojmahal, Eyfel minorasi, Yevropadagi qadimgi kutubxonalar va boshqalar.

4. O'quv mashg'ulotlari jarayonida talabalar bilan dunyo mamlakatlariga texnik vositalardan foydalangan holda sayohatlar tashkil etish, xalqlarning turmush tarzi, iqtisodi, urf-odatlari, moddiy qadriyatları, tili, dini va boshqa jihatlari borasida tasavvurlar va tushunchalar hosil qilish.

Shunday qilib, talabalar biz tanlagan mavzu yuzasidan quyidagilarni bilishi shart:

- qadriyatlar va ularning mazmun mohiyatini;
- qadriyatlarning turlari va namoyon bo'lish shakllarini;
- qadriyatlarning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini;
- qadriyatlarning psixologik-pedagogik asoslarini;
- hozirgi vaqtida qadriyatlarni o'qitish va shu ruhda tarbiyalashning usul, shakllari, mohiyati va tamoyillarini.

Shunday ekan, yoshlarni umummilliy qadriyatlargaga xos tarbiyasini shakllantirishga texnologik yondashuvda ham pedagogik ta'lif jarayonini puxta loyihalashtirish va aniq, maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish muhim sanaladi. Bu o'rinda dastlab ta'lif maqsadi aniqlab olinadi, muayyan o'quv jarayoni uchun ta'lif uslublari tanlanadi va nihoyat ta'lif jarayoni uzluksiz nazorat qilib boriladi.

Texnologik yondashuvga asoslanuvchi pedagogik faoliyatning o'ziga xos murakkabligi shundaki,

birinchidan, ta'lif bir butun, yaxlitlik jarayon bo'lib, pedagogik ta'sir shaxsda alohida sifatlarni tarkib toptirishga emas, balki tarbiyani yaxlit olib borish nazarda tutadi;

ikkinchidan, shaxsda muayyan sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi texnologiyalar ma'lum qismlarga ajratilmasdan, balki o'qituvchining o'ziga xos mahoratiga tayangan holda umumiylar texnologik jarayonni tashkil etishga e'tibor beriladi;

uchinchidan esa, yaxlit shaxsnii shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon o'qituvchining ijodkorligi, ta'lim qonuniyatlaridan kelib chiquvchi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida yoshlarni umummiliy qadriyatlargaga xos tarbiyasini shakllantirish ishini yaxlit holda amalga oshirishda quyidagi holatlarga e'tibor qaratiladi:

- talabaning ongi, his-tuyg'usi, xulqiga ta'sir etish;
- talabaning tashqi ta'sir asosida o'z-o'zini tarbiyalashi;
- shaxs tarbiyasi bilan bog'liq barcha sohalarning o'zaro aloqasi;
- shaxsni shakllantirishda aqliy, axloqiy, estetik va boshqa tarbiyaning tarkibiy qismlarining uyg'unligiga erishish;
- shaxsni shakllantirish jarayonining tizimliligi;
- talabalarning bilim darajasini aniqlash.

Ta'lim jarayoniga texnologik yondashuvda o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik, ularning bir-biriga ta'siri hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish, shaxsni shakllantirishga yo'naltiruvchi uslublar, talaba faoliyatini to'g'ri tashkil etish, pedagogik jarayonda paydo bo'lgan muammolarni bartaraf etish, ijodiy ishchanlik muhitini yaratish, talaba faoliyatini baholash kabi o'quv-biluv ishlari amalga oshiriladi. Ammo ta'lim jarayoniga texnologik yondashuv – bu hali shaxsni shakllantirishni to'liq hal etadi, degan so'z emas.

Bosh maqsad talabalarda umummiliy qadriyatlargaga xos tarbiyani shakllantirishga yo'naltirilar ekan, ta'lim jarayonini muayyan bosqichlarga bo'lib olish va har bir bosqich uchun xususiy maqsadlarni ham belgilash, shuningdek, bosh va xususiy maqsadlarni amalga oshirishga yordam beruvchi metod hamda usullarni tanlash, bu yo'lda uchraydigan katta-kichik muammolarni hal etish asosida ular o'rtasida o'zaro uyg'unlikni hosil qilishga qaratiladi.

Tajriba sinov ishlari davomida biz talabalarning qiziqishlarini o'rganib chiqdik va maxsus dastur asosida ular bilan ishlashni lozim deb hisobladik. Bu ishlar darsdan tashqari vaqtida amalga oshirilishi va talabalarning bo'sh vaqtlarida tashkil etilishini inobatga oldik. Ya'ni fakultet dekanati va kafedralar tomonidan ishlab chiqilgan reyting grafiga asoslanib mashg'ulotlarni tashkil etdik. Bu muddat oktyarb oyining so'nggi xافتалари va mart, aprel oyalaridan iborat kunlarga to'g'ri keldi.

Shunday qilib dastur uch bosqichda amalga oshirishi belgilab olindi.

-birinchi bosqichda talabalar o‘qituvchilar yordamida qadriyatlar haqidagi nazariy bilimlarni egallaydilar. So‘zsiz bu jarayonda o‘qituvchining roli yetakchilik qiladi. Talaba esa oddiygina tinglovchi sifatida qatnashadi. Bundagi holat xuddi an’anaviy ta’lim jarayonini eslatadi. Bu mashg‘ulot turida ko‘proq ta’lim berishning ma’ruza shaklidan foydalaniadi. Shuningdek, dasturning bu bosqichida o‘qituvchidan chuqur bilim va mahorat egasi bo‘lishlik talab etiladi. O‘qituvchi har bir ma’ruzaga jiddiy tayyorgarlik bilan kirishi, fikrlari tizimlashtirilgan, ilmiy asoslangan bo‘lishi kerak. Albatta berilayotgan bilimlarning har biri hayotiy misollar bilan izohlanishi kerak. Negaki, bilim hayot bilan bog‘langan taqdirdagina u talabaning xotirasida mustahkam qoladi. Ularga qadriyatlarga oid manbalarni o‘qish taklif etiladi. Bu ishlar ma’ruza, video filmlar va qadriyatlarga oid kitoblar namoyishi shaklida o‘tkazilishi mumkin.

Shunday qilib talabalar birinchi bosqichda quyidagi qadriyatlar haqidagi bilimlardan xabardor bo‘ladilar:

Nº	Mavzular	Ajratilgan vaqt
1.	Qadriyatlarning mazmuni va mohiyati	2
2.	Qadriyatlarning turlari va ularning namoyon bo‘lish shakllari	4
3.	Qadriyatlarning tarixiy ildizlari	4
4.	Qadriyatlarning borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari	2
5.	Umummilliy qadriyatlarda insoniyat orzu-umidlari bayoni	2
6.	Tinchlik, ezgulik, vatanparvarlik, mustaqillik-umummilliy qadriyat sifatida	2
7.	Inson salomatligi va ona sayyoraning sofligi azaliy umummilliy qadriyat ekanligi	2
8.	Umummilliy qadriyatlarga yoshlarning munosabati	2

Har bir mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi talabalarga - Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim yoki insert jadvali texnologiyasini taqdim etadi. Negaki o‘qituvchi uchun talabalar yana nimani bilishni hohlashlarini o‘rganish nihoyatda muhim hisoblanadi. Shunga muvofiq o‘qituvchi kelgusi dars mavzusini tanlashi ham mumkin. Ushbu metod mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil

qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Dastlab talabalarga jadvalni tuzish qoidasi eslatib o‘tiladi va har bir talaba alohida to‘ldirishi taklif etiladi. To‘plangan javoblar yig‘ib olinadi va eng ko‘p bildirilgan “hohish” tanlab olinadi.

B/BX/B jadvali

Bilaman	Bilishni hohlayman	Bilib oldim
An’ana, urf-odat, bayramlarni qadriyat ekanligini	Moddiy qadriyatlarni	Qariyatlar tushunchasining mazmunini


Yoki insert jadvalidan ham foydalanish ham mumkin. Bunda talabalar qadriyatlar haqidagi ma’lumotlarni tizimlashtirishni o‘rganadilar, shuningdek, ularda avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash va solishtirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bastlab har bir talaba alohida o‘zi jadvalni to‘ldiradi, o‘qish jarayonida olgan ma’lumotlarni alohida o‘zi tizimlashtiradi hamda jadval ustunlariga “kiritadi”. Bunda talaba matnda belgilangan quyidagi belgilarga asolanadi.

“V” - men bilgan ma’lumotlarga mos;

“-“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;

“+” - men uchun yangi ma’lumot;

“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi. Jadval quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.



-ikkinchi bosqichda egallangan nazariy bilimlar amalda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida sinab ko‘riladi. Bu jarayon talabalarning o‘zlari ishtirokida tashkil etiladi. O‘qituvchi talabalar jamoasiga qo‘shilib, ular bilan teng huquqli a’zoga aylanadi. Bunda o‘qituvchi talabalarga guruh a’zosi sifatida ish turi va mavzuni taklif etishi, ba’zan talabalar uning taklifini rad etib, boshqa ish turini tanlashlari mumkin. Masalan o‘qituvchi davra suhbatini tashkil etishni taklif etsa, talabalar tarixiy obidalarga sayohatni tanlashi yoki treningda ishlashni ma’qul ko‘rishi mumkin. Shunday qilib, bunda talabalar tanlagan ish turidan foydalaniladi. Negaki, ular tanlab, uyuştirgan tadbir saramadorligi yuqori bo‘ladi. Demak, ikkinchi bosqichning maqsadi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar: davra suhbatlari, treninglar, sayohatlar va disput, turli kechalar asosida amalga oshiriladi. Shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, biz olib borgan tajriba-sinov ishida treninglar va disputdan samarali ish turi sifatida qo‘llanildi. So‘zsiz ular talabalarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirishga xizmat qildi, desak adashmaymiz. Masalan, umummilliy qadriyat hisoblangan “Do‘stimning tug‘ilgan kuni” mavzusida tashkil etilgan treningda talabalardan birining tug‘ilgan kuni nishonlandi. Talabalar tug‘ilgan kuni nishonlanayotgan do‘stiga kitob, gul, yon daftarcha, yumshoq o‘yinchoq va hokazolarni sovg‘a qildilar. Har bir sovg‘a bergen talaba ezgu tilaklar ham bildirdi. Treningni o‘tkazish shartlaridan yana biri – sovg‘a taqdim etayotgan talaba o‘ziga yoqqan holatlarni ifodalash orqali tilak bildirishi lozim. Trening ishonarli bo‘lishi uchun biz tavallud kuni yaqin bo‘lgan talabani tanlab oldik.

Bu trening talabalarda ular o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash, o‘zaro e’tibor, mehr-oqibatni shakllantirishga xizmat qildi.

-uchinchi bosqichda yana vaziyatni o‘qituvchi qo‘lga oladi. Bunda o‘qituvchi talabalarga “Qadriyatlar va men”, “Mening xayotimda qadriyatlarning o‘rnii”, “Umummilliy qadriyatlarga mening munosabatim”, “Mening hayotim qadriyatlар bilan go‘zal”, “O‘zbekona qadriyatlар” kabi mavzularda referat yoki insho yozib kelishlarini topshiradi. Ammo har bir talaba mavzuni erkin tanlashi yoki boshqa qadriyatlarga xos mavzu doirasida referat yozishi mumkinligini aytib o‘tadi. Referatlar o‘qituvchi tomonidan o‘rganib chiqilgandan so‘ng, talabalarga tarqatiladi va muhokama kuni belgilanadi. Muhokama kunida o‘qituvchi eng yaxshi referatlar sohibini ma’lum qiladi. Shunday qilib referatlar talabalar tomonidan auditoriyadagi talabalarga ham o‘qib eshittiriladi. O‘qituvchi muammoli savollar bilan talabalarni muzokaraga chorlaydi va ularning munosabati, egallagan bilimlarini o‘rganadi. Qadriyatlarning inson hayotidagi o‘rnini yana bir bor talabalarga tushuntirib beradi.

Bosqichlarni amalga oshirish jarayonida qo‘yidagi holatlarga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- talabalar imkoniyatlarini inobatga olish;

- jarayon ishtirokchilarini birdek faollikka undash;
- talabalarning umummilliy qadriyatlarni o‘rganishga doir motivatsiyasini rivojlantirish;
- talabalarda har bir mashg‘ulot oldiga aniq va natijalari kafolatlangan maqsadlarni qo‘yish, shuningdek, ularda hududiy sharoitlardan qat’iy nazar natijaga erishish uchun muammoli vaziyatlardan chiqish usul va vositalarini izlab topish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Dasturni amalga oshirish jarayonida talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishning samarali tashkiliy-pedagogik shakl, metod va vositalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bunda innovasion metodlarni qo'llash biz tanlagan muammoning samarali bo‘lishiga olib keladi. Innovasion metodlarni qo'llash talabalarda voqealar rivojini oldindan ko‘ra bilish, chamlash, o‘z-o‘zini anglash, hayotiy maqsadlarini amalga oshirish, axloq, e’tiqod, ishonch va turli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

Quyida biz dasturni amalga oshirish jarayonida foydalangan bosqichlarning (1-2-3 etapdagи) holatini izohlab o‘tmoqchimiz.

1-jadval. 1-2-3 bosqichlardagi holatlarni solishtirish

1- Bosqich	2-bosqich	3-bosqich
Faoliyat markazida o‘qituvchi turadi	Faoliyat markazida o’quvchi turadi	Faoliyat jarayonida teng huquqlilik o‘rnatilib, vaziyat o‘qituvchi nazoratida bo‘ladi
O‘quv faoliyatini o‘qituvchi tashkil etadi va boshqaradi	O‘quv faoliyati o’quvchi va o‘qituvchining o‘zaro hamkorligi asosida tashkil etiladi	O‘qituvchi topshiriq beradi va vazijani so‘raydi
O‘quv jarayonida o’quvchi faol mehnat qilib, qadriyatlarga oid bilim oladi	O‘quv jarayonida o’quvchi faol mehnat qilib, qadriyatlarga oid bilim oladi	Har ikkala tomon bir xil harakatda bo‘ladi
Ta‘limning tub mohiyati etkazilgan bilimlarni o‘zgarishsiz takrorlashdan iborat	Ta‘limning tub mohiyati o‘quvchining mustaqil olish qobiliyatini shakllantirishdan iborat	Ta‘limning asosiy maqsadi takrorlash va mustahkamlash asosida amalga oshiriladi

2.2. Ma’naviy-ma’rifiy ishlар – yoshlarni umummilliy qadriyatlаримизга xos tarbiyasini shakllantirish omili sifatida

Dunyoda mafkuraviy kurash va urushlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlarning ma’naviy tarbiyasidan ogoh bo‘lishimiz naqadar muhim rol o‘ynashini I. Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisida fikr yuritib, “...uzoqni

ko‘zlaydigan, aniq maqsadlarga ega bo‘lgan turli xuruj va g‘arazli intilishlar, xorijiy markazlar tomonidan katta kuch va mablag‘ sarflanayotgan harakatlar va bu kabi xavf-xatarlar bizga qanday zararli oqibatlar olib kelishidan ogoh bo‘lishimiz darkor”¹, - deb ta’kidlagan edi.

Darhaqiqat, istiqlolning birinchi kunlaridanoq yoshlarni har qanday mafkuviy xurujlardan asrash va himoyalash chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizning hududiy yaxlitligini saqlash, davlat suverenitetini himoya qilish, fuqarolar tinchligini va milliy barqarorlikni ta’minalashga qaratilgan e’tibor desak xato bo‘lmaydi. Yoshlar tarbiyasi masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, 2008 yil Yoshlar yili deb e’lon qilindi hamda yoshlarga, ularni moddiy, ma’naviy qo’llab-quvvatlashga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirildi. Bu ishlarning huququiy asoslari ishlab chiqilib, u “Yoshlar yili davlat dasturi”da o‘z ifodasini topdi va ushbu muammoga doir vazifalar va ularni amalga oshirish yo‘nalishlari dasturda ko‘rsatib berildi. Dasturga muvofiq O‘zbekistonda yashovchi barcha millat yoshlarining sog‘lom turmush tarzi va urf odatlari, o‘zaro totuvligi ta’minlandi.

Bugungi kunda yurtimiz ravnaqini yuksaltiradigan bilimga chanqoq, iste’dodli yoshlarni topish va umummilliyligini qadriyatatlarga xos tarbiyasini shakllantirish, Vatanga fidoyi qilib tarbiyalash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishiga aylandi. Darhaqiqat, yuksak ma’naviyat egasi bo‘lishlik insonga xotirjamlik, barqarorlikni ta’minlaydi.

Prezident I. Karimov 2006 yil 25 avgustda “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida” qabul qilgan Qarorida yoshlarni yuqoridagi sifatlar egasi etib tarbiyalashda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning o‘rni va ahamiyatiga yuqori baho beradi: “aholining keng qatlamlari, avvalambor, yoshlar o‘rtasida Vatanga muhabbat va sadoqat, insonparvarlik fazilatlarini tarbiyalash, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini har tomonlama ochib berishga yo‘naltirilgan suhbat va uchrashuvlar, ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish;” kerakligi aytildi. [69].

Talabalarni umummilliyligini qadriyatatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda o‘quv mashg‘ulotlari yetakchilik qilishi lozim deb qarash noto‘g‘ridir. Modomiki shunday ekan, talabalarni xalqlar do‘sligi, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashda ma’naviy-ma’naviy ishlar ham kuchli vosita sirasiga kiradi. Biz ishlab chiqqan dasturning ikkinchi bosqichi ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar asosida o‘tkazilishi rejalashtirilgan.

Demak, dasturga ko‘ra yoshlar o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish zarurati quyidagilar bilan izohlanadi.

1. Yer yuzida g‘oyaviy-siyosiy kurashlarning avj olayotganligi bois yosh avlod ongini ulardan muhofaza qilish omili sifatida foydalanish uchun;

¹ Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li. –T.: “O‘zbekiston”, 2007. – 28 b.

2. Yoshlarda vatanparvarlik, insonparvarlik, ajdodlar xotirasiga hurmat, ona tabiatni asrash, mehnatsevarlik kabi umummilliy qadriyatlarni shakllantirish vositasi sifatida foydalanish uchun;
3. Yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ularning dars jarayonida olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida;
4. Birdam, ahil, inoq, shijoatli, tashabbuskor mamlakatimiz yoshlarini tarbiyalash va boshqalar uchun.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar haqida fikr yuritar ekanmiz, ba'zan nutqimizda ular madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ommaviy-madaniy tadbirlar nomi bilan yuritiladi. Ammo barchasining mazmunida yoshllarni barkamol insonlar etib tarbiyalash maqsadi yotadi. Demak, talabalar bilan tashkil etiladigan barcha tadbirlar ularni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, madaniy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini, dam olishini ko'ngilli o'tkazish, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki, tadbirlarni tarbiyaviy va madaniy ish sifatida barcha davlat muassasalari, kasaba uyushmalari, yoshlar uyushmalari, ommaviy axborot vositalari, san'at muassasalari, ishlab chiqarish korxonalari, jamoa xo'jaliklari, mudofaa tashkilotlari, sport, sog'liqni saqlash va dam olish tashkilotlari o'z ishining bir bo'lagi sifatida tashkil etadi.

Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish yuqoridagi tashkilot va muassasalar uchun asosiy vazifadan tashqari ish sifatida qaralsa, bu tadbirlar o'quv yurtlari ishining asosiy qismi, asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Chunki, ta'lim jarayonida faqatgina ma'ruza o'qish, seminar o'tkazish kabi shakllar bilan cheklanilsa, darsdan tashqari vaqtda tarbiyaviy faoliyat yanada to'ldiriladi. Bu esa mazkur tadbirlar ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'minlash bilan birga ularning har ikkisi ham yuqori samarali bo'lishiga xizmat qilishini anglatadi.

Pedagoglar talabalar dunyoqarashi va estetik didi, salohiyatini oshirish, ularning bilimdonligini oshirish va umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda madaniy-ma'rifiy ishni uzviy holda tashkil qilishlari talab etiladi. Ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ish aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayonga singib ketgan bo'lishi lozim.

Talabalarni qanday qilib umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyalash kerakligini aniq rejlashtirmay turib, ular rasida bu boradagi tarbiyaviy ishni samarali olib borib bo'lmaydi. Bu borada ish olib boradigan har bir pedagog shu tarbiyaning mohiyati, usullari, shakllari to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi zarur.

Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyalashda va ularning dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta. Oliy ta'lim jarayonida

o‘qitiladigan falsafa, ma’naviyat asoslari, madaniyatshunoslik, milliy g‘oya, siyosatshunoslik kabi fanlar ana shu fanlar jumlasiga kiradi. Ta’lim tizimida bu fanlar bilan madaniy-ma’rifiy tadbirlarning uzviy bog‘liqligini uyuştirgan holatda muntazam olib borishni tashkil qilish usuli bilan tarbiyaviy yo‘nalishda yanada yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Madaniy-ma’rifiy tadbirlarning mazmuni milliy ma’naviy-axloqiy, diniy qadriyatlarimiz, milliy madaniyatimiz, ma’naviy merosimiz, sharqona axloq kategoriyalardan iborat bo‘lgandagina tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Professor U. Qoraboyev tasnifiga ko‘ra madaniy-ma’rifiy tadbirlar quyidagi turlarga bo‘linadi: “turli kechalar, badiiy kompozitsiyalar, badiiy chiqishlar va diskoklub dasturlari, teatrlashtirilgan konserт va tomoshalar, xalq marosimlari va sayillari, ommaviy bayramlar, ko‘rik-tanlovlar kabi ko‘plab shakllar”. [134, 21].

Talabalar bilan o‘tkaziladigan tadbirlarni o‘rganib chiqib, biz ularni quyidagi ikki turga ajratib oldik:

1) ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan tadbirlar. Ularga ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya kabi dars shakllarida foydalaniladigan turlari kiradi. Dars mashg‘ulotlari davomida monolog, dialog, inssenirovka, video va audio yozuvlaridan parchalar keltiriladi. O‘z navbatida darsning qiziqarli bo‘lishiga olib keladi.

2) auditoriyadan tashqari vaqtarda o‘tkaziladigan tadbirlar. Ularga mavzuli kechalar, bahslashuvlar, uchrashuvlar, dam olish kechalari, munozara, konferensiya, teatrlashtirilgan konserт, ommaviy tomosha, sayil, bayram, karnaval, ko‘rik-tanlovlar, sayohat, ko‘rgazmalar, qiziqarli o‘yinlar, sport tadbirlari, badiiy havaskorlik to‘garaklari mashg‘ulotlari va boshqalar kiradi.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlarning bu ikki turi bir-biridan faqat shakli bilangina farqlanmaydi. Aksincha, ularning maqsadlari ham turlicha bo‘lishi bilan ajralib turadi. Mashg‘ulotlar jarayonida o‘tkaziladigan tadbirlarning maqsadi shu mashg‘ulotda o‘rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglashra qaratilgan bo‘lsa, darsdan bo‘sh vaqtarda o‘tkaziladigan tadbirlar barcha guruqlar, fakultetlar, kurslar uchun umumiyoт bo‘lgan yo‘nalishda o‘tkaziladi. Bu tadbirlarda ko‘ngil ochish ko‘proq o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda madaniy-ma’rifiy tadbirlarga qo‘yiladigan muhim talablardan biri — ularda ko‘tarilayotgan masalaning hayotiyligidir. Bu tadbirlar talabalarni qiziqtiradigan va ular yoqtiradigan mavzuga bag‘ishlanmasa, kutilgan samaradorlikka erishib bo‘lmaydi. Bu haqda olimlar M. Quronov va U. Oltinov shunday fikr bildirishadi: ”O‘rganilayotgan mavzuni hayot bilan bog‘lash- didaktikaning bosh talabidir. Biroq, g‘oya qanchalik jozibali bo‘lsa-da, agarda hayot bilan bog‘lanmasa, u mafkuraviy e’tiqod, immunitetni shakllantira olmaydi. Chunki,

talabaning mafkurasi uning hayotda ko‘rgan, eshitgan mafkuraviy misollar, uning orzu-havaslari, qiziqishlarining in’ikosidir.” [144, 56].

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlar bevosita guruh murabbiyining faoliyati bilan bog‘liq, desak adashmaymiz. Guruh murabbiylarining vazifalaridan biri ham o‘z guruhi talablarini ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirokini ta’minalash, ular bilan turli kechalarni tashkil etish, sayohatlarni uyshtirish, sport musobaqalariga jalb etish, dunyoda va yurtimizda sodir bo‘layotgan so‘nggi yangiliklardan xabardor qilishdan iborat. Yoshlarni umummilliy qadriyatlargacha xos tarbiyasini shakllantirishda guruh rahbarlari tomonidan o‘tkaziladigan ma’naviyat kunlari va axborot soatlarining ahamiyati kattadir. Ushbu ish turlarida talabalar umummilliy qadriyatlarning mazmuni bilan ham tanishib borishadi.

Bu o'rinda mashg'ulotning talabalar tomonidan mustaqil tashkil etilishi uchun sharoit yaratish yanada muhim hisoblanadi. Bizga ma'lumki, bu mashg'ulot haftada bir marotaba tashkil etiladi. Bunda guruh rahbari talabalarga qadriyatlar, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, inson hayotida qadriyatlarning roli, dunyodagi siyosiy va ijtimoiy voqealar, yurtimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari tufayli sodir bo‘layotgan ommaviy axborot vositalarida chop etilgan materiallar bilan talbalarni tanishishlarini topshiriq tarzida beradi. Yoki har bir talabaga turli mavzularga oid ma'lumotlarni to'plash topshiriladi. To'plangan ma'lumotlar kelgusi haftada muhokama etiladi. Bunda o'qituvchi ishtirokchi sifatida o'z takliflarini bildirishi, zarur o'rinnlarda fikrini bildirishi va oxirida xulosa keltirib o'tishi lozim bo'ladi. Bu mashg'ulotni “Fikriy hujum” metodi vositasi yordamida ham tashkil qilish mumkin.

Bunda talabalar to'rt guruhga bo'linib, muammolarni hal etishga harakat qildilar. Unda muammo yuzasidan asosli va faol fikr yuritgan guruhlar inobatga olinadi hamda rag'batlantirib boriladi. Mashg'ulotda, shuningdek, har bir talabaning faol ishtirok etishini ta'minalashga e'tibor qaratiladi.

Oliy o‘quv yurtida ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish ham o‘ziga xos ma’naviy-ma’rifiy tadbir turi hisoblanadi. Bu, avvalo, talabalarda jamiyat, vatan, ta’lim muassasasi oldidagi burchni his etgan holda ixtiyoriy ravishda bajariladigan mehnatdir. Talabalarning ijtimoiy foydali ishlarda faol qatnashishi ularda burch, mas’uliyatni shakllantiradi, o‘z-o‘ziga va do‘stlariga adolatli baho berishni o‘rgatadi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

Talabalarning ijtimoiy foydali mehnatdagagi ishtiroki aynan ularda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishni nazarda tutmasada, talabalarni qishloq xo‘jalik ishlari, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish kabi ijtimoiy foydali ishlarga jalb etish orqali ularda tabiatga ijobiy munosabatni hosil qiladi. Bunda ko‘p narsa mehnatning mazmuni,

yo‘nalishi va qanday tashkil etilishiga bog‘liq. Albatta ushbu mehnat tabiat, jamiyat, jamoaning manfaatlarini qondirishga xizmat qilmog‘i lozim. Talabalar bajaradigan bunday ijtimoiy foydali mehnatning mazmuni ma’lum pedagogik ahamiyat kasb etishi kerak. Ya’ni talabalarda jamoaga ijobiy munosabat, tashabbuskorlik, do‘stona hayrihohlik ham bo‘lishi lozim. Ana shundagina talabalar ijtimoiy foydlali mehnatdan zavq oladilar. Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida har bir talaba jamoa bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Ishni bajarishda vijdonan yondoshish, bir-biriga ko‘maklashish hissi paydo bo‘ladi.

Tajriba-sinov ishlari jarayonida biz shunga ishonch hosil qildikki, ijtimoiy foydali mehnat jarayonida yoshlarni umummiliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishning samaradorligi guruh jamoasining qay darajada shakllanganlik darajasiga ham bog‘liq. Shuningdek, bu borada guruh rahbarining faolligi, tashabbuskorligi ham katta rol o‘ynaydi.

Ijtimoiy foydali mehnat jarayonida talabalarda umummiliy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirishning muhim shartlaridan biri mehnatning ijodiy xarakterda bo‘lishi. Bunda guruh murabbiysi yoki sardor talabalar oldiga taklif bilan chiqishi, topshiriqni bajarishning samaraliroq usulini izlashga da’vat etishi lozim bo‘ladi. Bunday paytda so‘zsiz talabalarning ko‘pchiligi takliflar bilan chiqadilar. Ko‘rinadiki, bunday holatda talabalar ishga ijodiy yondoshib, o‘zлarni erkin tutadilar va uni vijdonan bajarishga intiladilar.

Oliy o‘quv yurtida keng qo‘llanilayotgan ijtimoiy foydali mehnat turlariga quyidagilar kiradi: o‘quv auditoriyalari, o‘quv binolari va talabalar turar joylarida o‘z-o‘ziga xizmat qilish, shanbaliklarda qatnashish; shahar ko‘chalari, istirohat bog‘lari, bolalar maydonchalarini obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishda, moddiy boyliklarni, ne’matlarni ishlab chiqarishda: paxta yig‘im terimi va boshqa qishloq xo‘jalik mavsumiy ishlarida jamoa xo‘jaliklari, fermerlarga ko‘maklashish; yoshlar oromgohlarini ta’mirlash, mehribonlik uylari, maktabgacha ta’lim muassasalariga ko‘maklashish va boshqalar.

Biz o‘tkazgan tajribalar, kuzatishlarimiz shundan dalolat beradiki, talabalar bajarayotgan ijtimoiy foydali ishlarning yuqorida keltirilgan xilma-xil turlaridan ta’lim-tarbiyaviy maqsadni ko‘zlab foydalanilsa, kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

Talabalarni umummiliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishning samarali usullaridan yana biri - adabiy kechalar hisoblanadi. Kuzatish va tajriba-sinov ishlari ko‘rsatganidek, adabiy kechalarni tayyorlash va o‘tkazish ta’lim-tarbiyaning eng samarali, talabalarga kuchli ta’sir o‘tkazadigan vositalardan biridir. Adabiy kechalarga talabalarning ommaviy jalb etilishi, undagi yuksak ma’naviy ruhiy vaziyat, his-hayajon, yuksak aqliy, insoniy tuyg‘ular, hayotiy lavhalarni badiiy obrazlar vositasida namoyon bo‘lishining o‘zi ta’lim-tarbiyaviy ta’sirni nihoyatda oshiradi.

Adabiy kechalarining tarbiyaviy imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun avvalo, kechani qanday o‘tkazish masalasini puxta o‘ylab, rejalashtirib olish lozim. Birinchi navbatda, kechaning maqsadini aniqlab olish zarur. Adabiy kecha uchun mavzu tanlanganda quyidagi meyorlarga amal qilinadi: mavzu dolzarb bo‘lishi, kishini o‘ziga jalb qiladigan bo‘lishi kerak. Adabiy kechaning mavzusi dolzarb bo‘lishining sababi shundaki, kechaning g‘oyalari yoshlarda qiziqish o‘yg‘ota olishi juda muhimdir. Badiiylik va dolzarblik darajasi past asarlardan foydalanish kechaning samarasiz bo‘lishiga olib keladi. Garchi ularda umumiylig‘oyalar mavjud bo‘lsa ham tarbiyaviy ta’sir, samaradorlik kam bo‘ladi, hatto tinglovchi va ishtirokchilarning zerikishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, adabiy kechaning tarbiyaviy ta’siri kechaning qanday o‘tishidagina emas, ko‘proq uni qanday tayyorlashda bo‘ladi. Chunki adabiy kecha qanchalik yaxshi, qiziqarli bo‘lmasin, u qisqa muddatli voqeа, lekin davomiy jarayon emas. Shu bosdan har qanday adabiy kecha puxta va yaxshi tayyorgarlikni talab etadi. Shu maqsadda bir masalani aslo unutmasligimiz lozim. Talabalar jamoasi mustaqil jamoa bo‘lsa-da, turli kecha va tadbirlarni o‘tkazishda guruh rahbari va mas’ul shaxslar ko‘magi va maslahatida ishlarni tashkil etmog‘i lozim. Biroq hech bir vaqt guruh rahbari yoki tashkilotchi talabalarning tashabbusi va erkinligini cheklamasligi lozim. Aksincha ularga ko‘proq ishonch bildirishi, tashabbus va takliflarini qo‘llab-quvvatlashi darkor. Ana shundagina talabalar tomonidan yangi-yangi g‘oya va takliflar tug‘iladi. Tayyorgarlik ishlari ham talabalarning o‘zları tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Bu kecha o‘tadigan joyni bezash, tartibga keltirish, turli mavzuga oid rasm va plakatlarni ilish, mehmonlar taklif etish va boshqalar bo‘lishi mumkin. Tayyorgarlik jarayonida ishlar talabalarga taqsimlanib berilishi va ularning bajarilishi vaqtiga vaqtiga bilan nazorat qilinishi kerak.

Tajribalarda kuzatilishicha, adabiy kechani o‘tkazishda iqtidorli, qobiliyatli talabalarga tanlanadi, chunki ular ko‘plab tadbirlarda ishtirok etib o‘zlarida his-hayajonni yengib olganlar. Bunday ishlarning oqibati qoniqarli bo‘lmaydi. Boshqa talabalar qobiliyatlarini ko‘rsatish imkoniyatidan mahrum etiladi, har gal ishtirok etayotgan talabada esa manmanlik, “mag‘rurlik” alomatlari paydo bo‘ladi. Keyinchalik esa, boshqa talabalar o‘zini ortga tortadigan, shunchaki, tomoshabinga o‘xshab qoladi.

Bu tashkilotchi tomonidan muammoni oson yechish imkoniyatlaridan biri hisoblansada, bu adabiy kecha dasturini va o‘tkazish shaklini soddalashtirishdan boshqa narsa emas. Adabiy kechada har xil ko‘rgazmalar, adabiy o‘yinlar, viktorina tashkil etilmasa; adabiy kecha munosabati bilan eng yaxshi surat, eng yaxshi she’r, ixcham annotatsiya, retsenziya kabilar tanlovi o‘tkazilmasa; ko‘proq talabalarni qamrab olishi va turli tayyorgarlik ishlarini birga

bajarish mumkin bo‘lgan adabiy kompozitsiyani tayyorlash e’tibordan chetda qolsa; adabiy kecha “ma’ruza bilan konsert”dan iborat bo‘lsa, zarur tayyorgarlik ishlari qisqartirilsa, bunday adabiy kechaning tarbiyaviy ta’siri kam bo‘ladi. Bu, adabiy kechaning tarbiyaviy maqsadga erishish imkoniyatlarini; adabiy kechaga ko‘proq talabalarni jalg etish, birgalikda tayyorgarlik ko‘rish imkoniyati; tarbiyaviy ta’sir shakl usullari, qimmati va xilma-xilligini yo‘qqa chiqaradi. Darhaqiqat, adabiy kechani tayyorlash va o‘tkazish ishiga fakultetning butun jamoasi jalg etilsagina va barcha qatnashuvchilar birgalikda uzoq vaqt puxta tayyorgarlik ko‘rsa, adabiy kecha talabalarda juda katta iqziqish o‘yg‘otadi.

Demak, adabiy kecha fakultet jamoasi bajargan katta ishlarning yakuni, talabalar hamkorligi va uyushqoqligi; umumiy ishga har bir ishtirokchi qo‘shgan hissasi, mas’uliyatining ko‘rigi bo‘lmog‘i lozim.

Adabiy kechani mumkin qadar ko‘proq talabalar bilan o‘tkazishning eng yaxshi tomoni, ularda o‘z ishidan mammunlik, qoniqish, xursandchilik, ruhiy ko‘tarinkilik kayfiyatini uyg‘otadi. Bu kecha qatnashchilarining ko‘pchiligidagi o‘z mehnatining mahsulini ko‘rib quvonishni olib keladi. Kecha yakunida esa ular bu quvonchni birgalikda baham ko‘radilar, tadbirni muhokama qiladilar, qiziqarli holatlardan birgalikda xursand bo‘ladilar.

Kechada talabalar uchun qiziqarli vaziyatlarni yaratishga imkon berish, ular istaydigan ko‘rinish va shakllardan foydalanish maqsadga muvofiq. Negaki, bunday tadbirdardan talabalar dam olmog‘i, dars jarayonidagi zerikish holatlari bartaraf etib borilmog‘i lozim. Adabiy kechaning ma’ruzadan farqi qolmasa, bunday kechadan ishtirokchi talaba ham, tomoshabinlar ham bezadi.

Demak, adabiy kechaning jozibali, ta’sirchan bo‘lishiga talabalar ommasi bilan tinimsiz, qunt bilan ishslash evaziga erishish mumkin. Shundagina adabiy kecha talabalarda umumilliy qadriyatlarga xos tarbiyaga xos fazilatlarni o‘stirishga muhim hissa bo‘lib qo‘shiladi. Adabiy kechalarni tayyorlash va o‘tkazish jarayonlarini kuzatish, tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

1. Yoshlarning umummilliylar qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda, kecha mavzusini to‘g‘ri tanlash; shuningdek, badiiylik darajasi yuksak, insoniylik g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirgan mavzularni tanlash talabalarning qalbi, ongi, hissiyotiga kuchli ta’sir o‘tkazadi, ularda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantiradi;

2. Adabiy kechalarni to‘g‘ri tayyorlash va o‘tkazish amaliyoti bo‘lajak mutaxassisning madaniy-ma’naviy rivojlanishi uchun, o‘z-o‘zini takomillashtirishi uchun muhim omil bo‘lib

xizmat qiladi, bular o‘z navbatida yoshlarda umummmiliy qadriyatlargaga xos tarbiyani rivojlanishiga olib keladi.

3. Tadbirlarni tashkil etishda talabalar tomonidan namoyish etilayotgan tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilayotgan tadbirning samaradorligini yuksaltiradi va qizqiarli, mazmunli o‘tishiga olib keladi.

4. Yoshlarni umummilliyligini qadriyatlargaga xos tarbiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan tadbirlar talabalarda milliy va umummilliyligini qadriyatlarni bilishga ishtiyoyqni o‘stirishga, ularni qadrlashga o‘rgatmog‘i lozim.

Bizning tajribalarimiz yoshlarni umummilliyligini qadriyatlargaga xos tarbiyasini shakllantirishda disput – ochiq munozara, bahslar o‘tkazish samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ularni har qanday munosabatlar va mavzularga taalluqli, desak adashmaymiz. Eng muhimi disputlarda talabalar o‘zlarini erkin tutishlari ma’lum bo‘ldi.

Keyingi paytlarda televideniyeda ham turli mavzularda disputlar, bahslar tashkil etilmoqda. Bir ko‘rinishda disput qandaydir tortishuvga o‘xshasa-da, biroq uning ta’sir doirasi juda kengdir. Turli mavzularda tashkil etilayotgan disputlarda kishilarning bir-biri, ota-onasi, qarishdosh-urug‘lari, mahalla bilan o‘zaro munosabatlarini va ularning yechimini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zan bu ko‘rayotgan despurlarda kishilarning o‘zaro munosabatlarda quyushqondan chiqib ketayotganligini, o‘zini boshqarishda xatolarga yo‘l qo‘yayotganligini ham guvohi bo‘lamiz. Va o‘zimizga kerakli xulosalarni chiqarib olamiz. O‘zbekona qadriyatlar bo‘lmish o‘zaro hurmat, tavozening borligiga shukronalar keltiramiz. Shartmikan, oilaviy munosabatlarni ko‘cha kuyga olib chiqish, degan fikrga ham kelamiz. Ammo masalaning boshqa tomoni ham bor, bunday muammolar turmushda ko‘p uchrashini va bundan boshqalar kerakli xulosani chiqarib olishi mumkinligini inobatga olishimiz lozim.

Demak, disputlarni tarbiyaviy tadbirlar qatoriga kiritilib, vaziyatga qarab ijodiy tashkil etilsa va u talabalarning xulqi, his-tuyg‘ulariga kuchli ta’sir o‘tkazadi. Bahslashuvlar odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ular xulqining motivlarini aniqlash, muammoni atroflicha va to‘g‘ri baholashga o‘rgatadi. Zero, bahs, munozara har doim har xil nizolar, ba’zan qarama-qarshi nuqtai nazarlarning to‘qnashuvini nazarda tutadi. Munozara ishtirokchilaridan nizo predmetiga nisbatan aniq bir qarash, axloqiy e’tiqodga ega bo‘lish; o‘z fikrlarini isbotlash malakasi, qarshi tomonning nohaq ekanligini asoslash, o‘z o‘rtog‘ining ongi va xulqidagi nuqsonlarni ochiq, to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanqid qilish; milliy va umuminsoniy axloq meyorlarini faol himoya qilish talab etiladi. Har bir talabaning hayoti, faoliyatida shunday odamlar ham uchraydiki, qat’iyilik talab qilinadigan masalalarda ular bilan munozara, bahsga kirishish zarur bo‘lib qoladi. Bunday tortishuvlar nafaqat o‘quv yurtida, balki oilada ham, ko‘chada ham,

notanish kishilar davrasida ham paydo bo‘lishi mumkin. Yengil-yelpi hayot kechirishni istovchi lo‘ttiboz, safsatabozlar hamma joyda o‘z “falsafasini” o‘tkazishni juda yaxshi ko‘radi. Ba’zan o‘z fikrini aniq ifodalashni bilmaydigan, o‘zining to‘g‘ri e’tiqodini, adolatli axloqiy qarashlari va ideallarini himoya qilishni o‘rganmagan yigit-qizlar bahsda nochor holatga tushib qoladilar.

Disput oliv o‘quv yurtida tarbiyaviy ishning shakli sifatida yoshlarda umummiliy qadriyatlarga xos fazilatlarni shakllantirish omili hisoblanadi. Har qanday ijobiy fazilat qarama-qarshi salbiy xislatlar bilan kurashda toblanadi va qadr qimmati oshadi. Odatda, bahsda har xil qarashlar, intilishlar, didlar, e’tiqodlar bir-biriga duch keladi, muammoli vaziyat hosil bo‘ladi, bu, hammada qiziqish uyg‘otadi. Ochiq munoazaraning tarbiyaviy kuchi har xil nuqtai nazarlar, axloqiy e’tiqodlar duch kelgan paytda har kim o‘z nuqtai nazarini himoya qilishga intiladi, o‘z fikrlarini atroflicha o‘ylab, qarshi tomonning fikrlari xatoligi yoki xilma-xilligini isbotlashga harakat qilishadi.

Talabalarda umummiliy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirish maqsadiga yo‘naltirilgan disputlarda har bir talabaning xarakter xususiyati namoyon bo‘ladi. Bu, oliv o‘quv yurti pedagoglar jamoasining talabaning xulqi, qarashlari, qiziqishlariga tarbiyaviy ta’sir o‘tkazishi; har bir talabaning insoniy munosabatlarini tarkib toptirish maqsadiga xizmat qiladi. Disput tugagach, uning ishtirokchilari o‘zlarini qiziqtirib kelgan savollarga javob topishda qiynalib kelayotgan masalaga aniqlik kiritganlarini his etadilar. Eng muhimi talabalar disputlarda o‘zlarini erkin his etadilar va o‘ziga tengdosh kishilar bilan muzokaraga kirishadilar. Bunday disputga rahbarlik qilayotgan kishi esa, maqsadga erishishda talabalarni faollikka undashi va masalaningadolatli yechimini chiqarishga intilmog‘i kerak.

Talabalarning umummiliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish darajasini o‘stirish uchun ona tabiatni asrash, xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, inson qadr-qimmati va salomatligi, tinchlik uchun kurash, fan-texnika yutuqlari, vatanparvarlik kabilar yuzasidan ochiq munozaralar tashkil etish va o‘tkazish juda foydalidir. Umumiliy qadriyatlarga doir bahs-munozaralar o‘z o‘rnida namuna, hayotiy misollardan foydalanishga imkon yaratadi.

Ochiq munozaraning tarbiyaviy ta’sir kuchi, ko‘pincha, uni tayyorlash sifatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ochiq munozarani tashkil etuvchi tashkilotchi mutaxassis ta’lim - tarbiyaning umumiyl va juz’iy maqsadlarini; talabalarning yoshi, tarbiyalanganlik darajasi; ularning hayotiy tajribasi hisobga olishi; munozarani tayyorlash, o‘tkazishda foydalaniladigan mavzu va materiallarni oldindan aniqlashi lozim.

Ochiq munozara uchun tanlanadigan mavzu darajasi yuqori bo‘lishi bilan bir qatorda talabalarda umummiliy qadriyatlarni anglash va tushunishi uchun qulay zamin yaratishi ham kerak. Ochiq munozara uchun shunday mavzuni tanlash kerakki, u ijtimoiy turmush, talabaning

ichki kechinmalari bilan bog‘liq bo‘lsin; eng muhimi talaba o‘zi befarq bo‘lgan narsa va kishilarni qadrlashga o‘rgatsin

Tanlangan mavzu singari ochiq muhokama qilish uchun tuzilgan savollar ham talabalarda fikr-mulohaza uyg‘otishi, qarama-qarshiliklarni o‘zida mujassamlashtirgan, muammoli bo‘lishi, talabalarni babs-munozaraga chorlashi kerak. Muhimi, savollar hayotiy zarur, talabalarning saviyasiga mos, ularni fikrlashga da’vat etishi lozim.

Ochiq munozarani tayyorlash anchagina uzoq muddat talab etadi. Unga butun fakultet yoki guruh tayyorgarlik ko‘radi. Munozarani tayyorlash va o‘tkazishning bat afsil rejasini tuzish, vazifalarni guruhlarga taqsimlash, boshqaruvchini tanlash; ochiq munozara uchun savollar tayyorlash; munozara o‘tadigan joy, taklif qog‘ozlari, e’lonni tayyorlash, devoriy gazetaning maxsus sonini chiqarish; ochiq munozarani o‘tkazishga doir anketani tuzish, tarqatish, yig‘ib olish va tahlil qilish, bularning barchasi tashkilotchining vazifalari hisoblanadi.

Ochiq munozaraga tayyorgarlik ko‘rish paytida talabalar tayyorlanishi uchun umummiliy qadriyatlarga oid adabiyotlarni tavsiya etishi lozim. Darhaqiqat, muammo bo‘yicha asosli babs uchun talaba zarur bilimga ega bo‘lishi kerak. Bu borada umummilliy qadriyatlarga oid doir ilmiy, badiiy adabiyotlarni o‘qib o‘rganish juda foydalidir, ochiq munozara paytida, bahsda bu bilimlar qo‘l keladi. Lekin shuni ham yodda tutish lozimki, munozara kitobdag‘i materialni takrorlashdan iborat bo‘lmagligi; nutqlarda hayotiy voqealar, yoshlar tarbiyasi bilan bog‘liq muammolar, dalillar, talaba yoshlarning hatti-harakatlarini tanqidiy nuqtai nazaridan tavsiflovchi voqelikka kengroq o‘rin berilishi kerak. Ochiq munozara qatnashchilari va tinglovchilar babs, munozara, adabiy qahramonlar yoki gazetadagi maqolagagina daxldor bo‘lmay, talabalarning hayoti va xulqiga bevosita taalluqli ekanini anglashlari, his etishlari kerak.

Ochiq munozarani o‘tkazayotganda, u talabalar faolligining erkin, mustaqil, ijodiy shakli ekanligini hisobga olish lozim. Ochiq munozaraning vaziyatida talaba o‘zini erkin tutishi, uning fikrlari boshqalarnikiga to‘g‘ri kelmasa ham o‘z nuqtai nazarini bayon qilishiga da’vat etadigan bo‘lishi kerak.

Ochiq munozara paytida ko‘p narsa boshqaruvchilarga bog‘liq. Boshqaruvchilar, avvalo, yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan, bilim doirasi keng kishilar: olimlar, tajribali o‘qituvchilar, iqtidorli, faol talabalardan tanlanadi. Ochiq munozarani ikki yoki uchta boshqaruvchi olib borgani ma’qul: ular bir-biri bilan maslahatlashib, munozarani o‘tkazishi mumkin. Boshqaruvchilar ochiq munozaraga tayyorgarlikning borishidan to‘la xabardor bo‘lishlari, uning bevosita ishtirokchisi bo‘lmog‘i kerak. Munozara paytida nutq so‘zlayotgan kishi mavzudan chetga chiqib, boshqa masalani gapi rayotgan bo‘lsa, boshqaruvchi uni darhol to‘xtatib, kerakli tomonga

yo‘naltirishi lozim. Boshqaruvchilar har xil nuqtai nazarlarga aniqlik kiritib, bahs qatnashchilari o‘z nuqtai nazarlarini aniqlab, to‘g‘ri xulosaga kelishlariga erishishlari zarur. Ochiq munozara paytida, odatda, talabalar ko‘plab yozma savollar beradilar. Ularga javob berish boshqaruvchi va tashkilotchilarning vazifasiga kiradi.

Disput har qancha qiziqarli bo‘lsa ham cho‘zilib ketmasligi, bir yarim-kki soatdan oshmasligi kerak. Boshqaruvchilar ochiq munozarani o‘z vaqtida to‘g‘ri yakunlashlari, hamma so‘zga chiqqanlar qaysi masalada bir fikrga kelganlari, munozarada o‘rtaga qo‘yilgan, hali o‘z yechimini kutayotgan muammolarni ta’kidlab ko‘rsatishlari lozim.

Yuqorida bildirgan fikrlarimiz ya’ni yoshlarni umummilliy qadriyatlargacha xos tarbiyasini shakllantirishga yo‘naltirilgan tadbirlar tajriba-sinov ishlari jarayonida qo‘llanildi. Bu haqda keyingi paragrafda fikr yuritamiz.

Ikkinch bob bo‘yicha xulosalar

Talabalarни umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish borasidagi ishlarning amaldagi holatini o‘rganish bo‘yicha olingan ma’lumotlar quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi:

1. Tadqiqot natijalari talabalarda umummilliy qadriyatlarni shakllantirish manbalari va mezonlarini aniqlashga hamda ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga asos yaratdi.
2. Olingan natijalar faqat darsda emas, balki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ham talabalar bilan ularda umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni shakllantirish ustida izchil ish olib borish zarurligini ko‘rsatdi.
3. Asosiy diqqat-e’tiborni talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos fazilatlarni shakllantirishning turli omillari va vositalaridan foydalanib, uning samaradorligini oshirishga qaratish lozimligi aniqlandi.
4. Dars jarayonida innovatsion texnologiyalar, grafikli organiyerlardan foydalanish talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni shakllantirishning muhim omili ekanligi aniqlandi.
5. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar-talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni shakllantirish vositasi ekanligi tajriba-sinov ishlarida namoyon bo‘lib, ularni tashkil etishda dastur talablariga va tadbirlar mazmunini zamonaviylashtirish e’tiyoji mavjudligi kuzatildi.

III Bob. Muammoga doir tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi va uning samaradorlik

darajasi

3.1. Tajriba-sinov ishlari tahlili

Tajriba-sinov ishlari jarayonida boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalarida umummilliy qadriyatlarga xos fazilatlarning namoyon bo‘lish darajasini aniqlovchi tasnifni ham ishlab chiqdik. Bizning nazarimizda, o‘quvchilar o‘zlarida insonparvarlik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, tinchlikni e’zozlash, ona tabiatni asrash kabi xususiyatlarni namoyon eta olishlari lozim. Qayd etib o‘tilgan xislatlarning namoyon bo‘lishi quyidagi darajalar bilan belgilanadi.

Talaba yoshlarda umummilliy qadriyatlarga xos fazilatlarni namoyon bo‘lish darajasini baholash tasnifi

3.1.2 – jadval

Yuqori daraja	O‘rta daraja	Past daraja
----------------------	---------------------	--------------------

Insonparvarlik		
Atrofdagi kishilarga hurmat nazari bilan qaraydi va g‘amxo‘rlik qiladi. Insonlarni baxtli yashashga haqli deb biladi. Atrofdagilarning og‘irini yengil qilishga harakat qiladi. Har bir kishining erkinligi, haq-huquqlari mavjud deb biladi va unga o‘zi ham amal qiladi.	Atrofdagilarga yordam berishga tayyor. Biroq, bu boradagi o‘z tashabbusi bilan amalga oshirmaydi. Aksariyat holatlarda kimnidir topshirig‘iga ko‘ra atrofidagilarga yordam beradi.	Atrofdagilarga nisbatan loqayd, “menga nima” qabilida ish ko‘radi. Odamlarga mehribonlik ko‘rsatmaydi va bunga o‘zini burchli emas deb biladi.
Ona tabiatni sevishi va uni asray bilishi		
O‘zini ona tabiat qo‘ynida erkin va xotirjam his etadi, uning go‘zalligidan zaqlanadi. Tabiatni asrashga harakat qiladi, uning inson uchun ahamiyatli, zarur ekanligini yaxshi biladi. Tevarak-atrofni ifloslanishiga befarq qarab tura olmaydi. Daraxt, ko‘chat va gullar ekishni, parvarish qilishni yoqtiradi. Shanbaliklarda muntazam va astoydil qatnashib boradi.	Tabiatning inson uchun ahamiyatli, zarur ekanligini yaxshi tushunadi. Ko‘chat, gul, daraxat parvarish qilish va ekish haqida o‘zidan tashabbus chiqmaydi. Biroq tabiat boyliklarini asrashga harakat qiladi. Shanbaliklarda ishtirok shunchaki ishtirok etadi.	Tabiatning inson uchun ahamiyatli narsa ekanligini bilsa-da, ba’zan unga nisbatan befarq munosabatda bo‘ladi. Shanbaliklarda ishtirok etishni yoqtirmaydi va qatnashmaydi.
Vatanparvarlik		
Ona yurtiga sodiq. Vatani, mahallasi, qishlog‘ini behad qadrlaydi va uni yaxshi ko‘radi. Ona tuprog‘ni muqaddas deb biladi. Vatanining tarixini	Vatanining tarixini o‘rganishga qiziqadi. Milliy urf-odat, marosim va an‘analar haqida yetarli ma’lumotlarga ega emas. Ular mohiyatini chuqr anglamaydi.	O‘z vatanining tarixi va madaniyatini o‘rganishga nisbatan e’tiborsizlik bilan qaraydi. Vatan ravnaqi yo‘lida

<p>o‘rganishga qiziqadi. Zarur vaziyatlarda sadoqatini amaliy harakatlari asosida namoyish etadi. Vatamini himoya qilishni muqaddas burch deb biladi.</p>		<p>amaliy harakatlarni olib borishga intilmaydi</p>
Bag‘rikenglik		
<p>Kechiruvchan, oqko‘ngil, mehribon, og‘ir kunlarda yelkadosh bo‘ladi. Har kimdan yordamini ayamaydi, yolg‘izlikni yoqtirmadi. Yon-atrofdagilarga qo‘lidan kelganicha yordam beradi</p>	<p>O‘zini bag‘ri keng deb hisoblaydi, biroq buni amaliy faoliyatida isbotlamaydi. O‘z manfaati yo‘lidagina atrofdagilarga yaxshilik qiladi.</p>	<p>Kishilarga qilgan yaxshiliklarini minnat qiladi. Kechirishi qiyin kechadi, ko‘proq o‘ziga rahmi keladi</p>
Boshqa millat vakillariga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘lishi		
<p>Boshqa millat vakillaridan do‘stlar orttirgan va ular bilan har doim yaqin munosabatda bo‘ladi. Ularning manfaatini yoqlaydi, ularning tillarida so‘zlashishga harakat qiladi, hech qachon boshqa millat vakillarini kansitmaydi.</p>	<p>Boshqa millat vakillaridan do‘stlari yo‘q, biroq ular bilan ko‘cha-kuyda do‘stona munosabatda bo‘li, hurmat nazari bilan qaraydi. Ularning manfaatlarini yaxshi bildi va bunga e’tibor qaratadi.</p>	<p>Boshqa millat vakillaridan do‘stlari yo‘q. Ko‘cha-kuyda ular bilan munosabatga kirisha olmaydi. millat, g‘urur tushunchalarini asl mohiyatini anglay olmaydi.</p>
Tinchlikni qadrlashi		
<p>Tinchlikni oliy qadriyat ekanligini biladi va unga amal qiladi. Tinchlik tufayli farovon hayot kechirayotganiligi qalban his etadi. Da’vat etilgandagina tinchlik haqidagi targ‘ibotlarda O‘z faoliyati jarayonida</p>	<p>Tinchlikni qadrlaydi, uning zarur ekanligini biladi va unga amal qiladi. Tinchlik tufayli farovon hayot kechirayotganiligi qalban his etadi. Da’vat etilgandagina tinchlik haqidagi targ‘ibotlarda</p>	<p>Tinchlikni zarur ekanligini biladi, biroq tevarak atrofdagi voqealarga befarq munosabatda bo‘ladi. O‘zini tinchlikni targ‘ibot</p>

tinchlikni asrash zarurligini targ‘ibot qiladi.	ishtirok etadi.	qilishga mas’ul deb bilmaydi.
Adolatparvarlikka munosabati		
Talaba har doimadolatni yoqlaydi. Har qanday vaziyatlarda hamadolatni so‘zlaydi vaadolatni hukm chiqara oladi. O‘zining haq ekanligini isbotlay oladi. O‘rtoqlari va atrofdagilaridan rostgo‘ylikni talab qiladi.	O‘zini rostgo‘y deb hisoblaydi. O‘zaro munosabatlarda haqiqat tarafdori bo‘lsa-da, boshqalardan, buni talab qila olmaydi. Vaziyatga qarab ish tutadi.	Har doim ham rost gapira olmaydi. O‘zidan kattalarning tanbehini eshitgandan so‘nggina, to‘g‘ri xulosa chiqara oladi.
Moddiy qadriyatlarga munosabati		
Yurtimiz va boshqa mamlakatlardagi tarixiy obida, ziyoratgoh va boshqa moddiy boyliklar haqida boy bilim va tushunchaga ega. Ularning umummiliy qadriyat ekanligi biladi. Ular haqidagi ma’lumotlarni yanada ko‘proq bilishni yoqtiradi va ulardan faxrlanadi. Ularni asrab-avaylash ishlarida faol ishtirok etadi. Do‘srtlari va yaqinlariga ularni asrash lozimligini targ‘ib etadi.	Yurtimiz va boshqa mamlakatlardagi tarixiy obidalari haqida qisman bilimga ega. Ularning umummiliy qadriyat ekanligi biladi. Targ‘ib etilgandagina ular haqidagi ma’lumotni bilishga harakat qiladi.	Tarixiy obidalar haqida bilimga yuzaki bilimga ega. Ularning umummiliy qadriyat ekanligini bilmaydi. Ular haqidagi ma’lumotni bilishga harakat qilmaydi. Sayohatga ham ularga qiziqishi tufayli emas, dam olish va ko‘ngil ochish uchun boradi.

Shunday qilib tadqiqot boshida mana shu baholash tasnifi asosida kuzatish ishlari olib borildi (dars va ma’naviy ma’rifiy tadbirlar jarayonida), tegishli ilmiy adabiyotlar o‘rganildi, kirish testi va og‘zaki savol-javoblar orqali talabalarning biz tanlagan mavzuga nisbatan qiziqishlari, munosabatlari va umuman amaliyotdagi holati aniqlandi, ishlab chiqilgan dastur

asosida yoshlarni umummmiliy qadriyatlargaga xos tarbiyasini shakllantirish metodikasi tajriba-sinov ishlari jarayonida qo'llanildi.

Mana shu kuzatuvalar va olingen natijalar asosida tanlangan mavzuning samaradorligini oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarlardan foydalangan holda tajriba sinflarida dastur asosida belgilangan darslarni tashkil etdik. Har bir darsning texnologik xaritasini tuzib chiqib, ularda berilayotgan bilimlarning tizimliligiga e'tiborni qaratdik. Chunki, dastur asosidagi mashg'ulotlar bir-birini to'ldirib borishi lozim edi. Bunday darslar tajriba sinfi bo'lmish 1-kurs talabalari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi.

O'quv mashg'ulotlarini tashkil etar ekanmiz, bunda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratdik:

1. Qadriyatlargaga oid mavzuni boshlashdan oldin talabalar o'rtasida shu mavzu yuzasidan muammoli vaziyat yaratish va talabalarning darsga nisbatan qiziqishi, folligini kuchaytirib olish.
2. Qadriyatlargaga oid manbalar, ularning mualliflari to'g'risida talabalarga ma'lumotlar berish.
3. Talabalarga qadriyatlarning mazmun va mahiyatini tushuntirishda zamonaviy texnik vositalar, tarqatma material, pedagogik texnologiyalarning samarali foydalana bilish.
4. Qadriyatlarning inson hayotidagi o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratish.
5. Umummilliy qadriyatlar asosida talabalarda inson qadri, tinchlikning ahamiyati, ona tabiatga ijobiy munosabat, ilmning afzalligi kabilarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish.

Yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini tashkil etishning muvaffaqiyati bu o'qituvchi va murabbiylarning ma'naviy madaniyati, qadriyatlar haqidagi bilim darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Hamda ularda ish va til birligi qoidasiga amal qilishi natijasida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yuqorida bayon etib o'tilgan mulohazalarning oliy ta'lim amaliyotida o'z isbotini topishi hamda talaba yoshlarda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyani amalga oshirish yuzasidan keng ko'lamda tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Bu ishlar pedagogik ilmiy tajribaning ikkinchi bosqichida amalga oshirilib, mavzu yuzasidan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish asosida olib borildi. Bunda ishlab chiqilgan dasturning birinchi bosqichidagi 8 ta mavzu: qadriyatlarning mazmuni va mohiyati, qadriyatlarning turlari va ularning namoyon bo'lish shakllari, qadriyatlarning tarixiy ildizlari, qadriyatlar borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari, umummilliy qadriyatlarda insoniyat orzu-umidlari bayoni, tinchlik, ezgulik, vatanparvarlik, mustaqillik-umummilliy

qadriyat sifatida, inson salomatligi va ona sayyoraning sofligi azaliy umummilliy qadriyat ekanligi, umummilliy qadriyatlarga yoshlarning munosabati yuzasidan talabalarga tushunchalar berildi. Ushbu mashg‘ulotlarni tashkil etishda Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasining yetakchi professor-o‘qituvchilaridan kerakli metodik ko‘rsatmalar, pedagogik tavsiyalar olindi va o‘quv mashg‘ulotlarida bu pedagogik-metodik tavsiyalarga rioya etildi. O‘quv mashg‘ulotlari boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi 1-kurs talabalari bilan olib borildi.

Talabalarni qadriyatlarning turlari haqidagi bilimlarini oshirishga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotida ularga qadriyatlarning turlari haqida bat afsil ma’lumot berildi va mashg‘ulotning maqsadi quyidagicha belgilandi: talabalarda qadriyatlarning turlari haqida tushuncha hosil qilish va ularda mavzuga nisbatan qiziqishlarini o‘stirish, talabarning mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlashdan iborat. Ushbu o‘quv mashg‘ulotida talabarning qadriyatlarga nisbatan qiziqishlarini o‘stirish maqsadida rolli o‘yin texnologiyasidan samarali foydalanildi. Bu mashg‘ulotni tajriba guruhi talabalarining o‘zлari ishtirokida tashkil etildi. Ushbu o‘yin texnologiyasi talabalarda umummilliy qadriyat bo‘lmish ona tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirishga qaratildi. O‘yin nomi “Ekologik sud”. “Ekologik sud” mavzusida tashkil etilgan o‘yinda talabalar zo‘r qiziqish bilan ishtirok etishdi. Ular sudya, inson va tabiat ne’matlari rolini bajarib, insonning tabiatga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini namoyish etdilar. Tajriba guruhi talabalari bilan o‘yin yakunlangach, “Tabiat va men” mavzusida disput o‘tkazildi. Disputda hatto past darajada o‘qiydigan talabalar ham faol ishtirok etishdi. Talabalarga babs-munozaraga chorlovchi turli savollar bilan murojaat qilinganda ular o‘zlarining nuqtai-nazarini erkin va mustaqil bayon etdilar. Hatto ular o‘rtasida qizg‘in totishuvar ham bo‘ldi. Jumladan, tabiatga munosabatning qanday ko‘rinishlari mavjud?, degan savolga talabalarimizdan turli xil javoblar olindi. Mana shu jarayonda ular o‘rtasida qizg‘in bahs sodir bo‘ldi. Qaysidir talaba faqat ijobiy bo‘lishi kerak, desa. Qaysidir talaba har xil degan javobni qaytarishdi. Disput yakunida turli xil fikrlar umumlashtirildi va talabalarga ona tabiatni asrash va unga ehtiyojkorona munosabatda bo‘lish lozimligi yana bir bor uqtirib o‘tildi.

Umummilliy qadriyat bo‘lmish tarixiy obidalar va moddiy boyliklarni asrab-avaylashga qaratilgan o‘quv mashg‘ulotida esa elektron doskada sayohat darsi tashkil etildi. Ushbu darsning maqsadi: talabalarga uzoq tarixda bunyod etilgan turli mamlakatlardagi tarixiy obidalar, jumladan, “Tojmahal”, “Misr ehromlari”, “Eyfel minorasi”, “Guri amir”, “Shoxi zinda”, “Oqsaroy” kabilar haqida ma’lumot va bilimlar berildi. Ma’lumotlar berilayotganda talabalarni faollikka chorlovchi turli savollar berildi, muammoli vaziyatlar yaratildi. Asosiysi ushbu tarixiy obidalarni talabalar umummilliy qadriyat ekanligini bilib oldilar va ularni qachon va kim tomonidan bunyod etilganini anglab yetdilar.

Umummilliy qadriyat bo‘lmish tinchlik va vatanparvarlik mavzusidagi o‘quv mashg‘ulotining maqsadi esa: talabalarни tinchlikni qadrlashga o‘rgatish hamda ularda vatanparvarlik hissini tarbiyalash, yurtimiz tarixida yashab o‘tgan vatanparvar kishilar faoliyati haqida ma’lumot berishdan iborat.

Mashg‘ulot boshida sinkveyn metodi qo‘llanilib, talabalar bilan birgalikda “tinchlik”, “vatan”, “vatanparvarlik” tushunchalarining mazmuni yoritildi. Ushbu mavzuni talabalarga tushuntirishda Vatanimiz O‘zbekistonning farovonligi, obodligi, yildan-yilga yuksalib borayotganligining boisi unda hukm surayotgan tinchlik, osoyishtalik ekanligi video rolik orqali namoyish etildi. Shuningdek, bugungi kunda tinchlikka, ezgulikka zid bo‘lgan terroristik oqimlarning xalqlar tinchligiga rahna solayotgani Ukrainadagi qonli to‘qnashuvlar aks etgan video rolik orqali namoyish etildi.

Bu o‘quv mashg‘ulotidagi ikki xil ko‘rinishdagi video rolik talabalarning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatdi. Birinchi holatda talabalarda ko‘tarinkilik, O‘zbekistonning gullabyashnayotganligidan quvonish, milliy g‘urur, iftixon tuyg‘ularini kuzatgan bo‘lsak, ikkinchi holatda talabalarни bir oz o‘ychanlik, voqealarga munosabatida jiddiylik hosil bo‘ldi. Video roliklar namoyishidan so‘ng talabalar bilan qisqa mazmunli disput o‘tkazildi. Disputda talabalar juda faol ishtirok etdilar, ularning javoblarida o‘ziga ishonch, voqealarni tahlil qilishda yakdillik kuzatildi. Buni bir tomonidan mavzuning nihoyatda dolzarbligi bilan izohlasak, ikkinchi tomonidan ko‘rgazmalilikning natijasi sifatida e’tirof etishimiz mumkin.

Umuman olganda dasturda rejalashtirilgan mavzular yuzasidan talabalarda tushuncha va bilimlar hosil qilindi.

Shu bilan birgalikda tajriba ishlari auditoriyadan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlari jarayonida ham davom ettirildi. Kuzatishlarimiz natijasida shuni aytishimiz lozimki, fakultet va universitet miqyosida ma’naviy-ma’rifiy tadbirdilar juda yaxshi tashkil etib borilmoqda. Tashkil etilayotgan mavzular shu bugunning dolzarb muammolari: diniy ekstremizm va terrorizmning salbiy oqibatlari, odam savdosi, Spidga qarshi kurash, yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish, giyohvandlik va narkomaniya kabi ko‘plab mavzularda o‘tkazilmoqda. Shuningdek, fakultetda “Keksalarni e’zozlash”, “Yoshlarga oid davlat siyosati”, “Sog‘lom ona va sog‘lom bola” davlat dasturi yuzasidan ham kafedralar hamkorligida dastur bandlariga muvofiq davra suhbatlari, adabiy kechalar, ko‘rgazmalar namoyishi muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Birgina Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi tomonidan aprel-may oylarida qator tadbirdilar o‘tkazilganini guvohi bo‘ldik. Shuningdek, 1-2-3-4 kurs talabalarini mart-aprel-may oylarida kuzatuv va malaka amaliyoti davrida ham ma’naviy-ma’rifiy tadbirdarini talab darajada tashkil etib, maktablardan faxriy yorliq va tashakkurnomalar bilan qaytishdi. Ushbu tahlil natijasida shuni alohida ta’kidlashimiz lozimki, universitet va fakultetda ma’naviy-ma’rifiy

tadbirlarni tashkil etish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Ammo ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etilishda ayrim kamchiliklar ham ko‘zga tashlanadi. Jumladan, tadbirlarga barcha talabalarning to‘liq jalb etilmasligi yoki tashkil etilayotgan tadbirlarning qanchalik qiziqarli bo‘lishiga qaramay talabalarda laqaydlikning mavjudligini ko‘rishimiz mumkin.

Masalan, Pedagogika fakulteti dekani tomonidan 2016 yil 1 aprel oyida Kamolot yoshlar harakati vasiylik kengashining 2015 yil 10-dekabrdagi 65-sonli majlisi bayoni hamda mazkur bayon bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida 2016 yilda Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora tadbirlar dasturi”ning 91- bandi ijrosini ta’minalash, yoshlarda yot g‘oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish maqsadida “Jaholatga qarshi ma’rifat”, ”Men diniy ekstremizm va terrorizm tahdidini qanday tushunaman” mavzularida fakultet talabalari o‘ratasida ijodiy ishlар: she’r, insho va rasmlar tanlovi tashkil etildi. Bu tanlovda Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy yo‘nalishi 1-2 kurs talabalaridan atigi 11 kishi she’r va insho topshirdi. Guruh murabbiylarining targ‘ibotlaridan so‘ng insholar soni bir oz ko‘paydi. Talabalar bilan bu borada suhbatlashganimizda ular vaqtning yetishmasligini vaj sifatida ko‘rsatishdi. Insholar ko‘rik tanlovida ishtirok etgan 1-kurs boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalaridan Omonova Gulmira 1-o‘rin, Tovasharova Zebo 2-o‘rin, Norqulova Mariya 3-o‘rinni, Xalimova Nigina esa 4-o‘rinni egalladi.

Bizning maqsadimiz talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish ekan, tajriba-sinov ishlari ko‘lamini kengaytirish maqsadida akadem guruhlarda tashkil etiladigan axborot soatlari e’tiborni qaratdik. Bunday axborot soatlarini Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasni 1-kurs guruh murabbiylaridan Raxmatullayeva Shahodat, Aslanova Orzigel, Niyozova Dilbar va 3 kurs guruh murabbiylari Choriyeva Feruza, Yarmanova Yulduzlar olib bordilar. 3 kurs talabalari nazorat guruhi bo‘lganligi uchun mazkur ishlar amaldagi holat yuzasidan tashkil etildi. Ushbu guruhdagi axborot soatlari ma’naviyat bo‘limi tomonidan taqdim etilgan mavzular yuzasidan va odatdagagi axborot berish shaklidan foydalangan holda olib borildi.

1-kurs talabalarining axborot soatlari odatdagidan boshqaroq tarzda tashkil etildi, ya’ni axborot mavzulari va materiallari bir necha kun oldin berildi va talabalarga ushbu mavzular yuzasidan tayyorgarlik ko‘rish lozimligi aytildi.

Ya’ni ushbu topshiriqlar qisqa vaqt ni qamrab olgan kichik ma’ruza, disput, savol-javob, ommaviy axborot vositalari orqali berib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy yangiliklarni tushuntirish, hikoya qilib berish ko‘rinishlarida amalga oshirildi. Bizga ma’lumki, oliy ta’lim jarayonida tashkil etilayotgan axborot soatlari 40 minut davomida amalga oshiriladi. Kuzatuvlarimizga ko‘ra axborot soatlarida berilayotgan mavzularning barchasini agar faqat o‘qib eshittirish tarzida amalga oshirilsa, barcha mavzularning mohiyatini talabalarga yetkazishning

imkoniy yo‘q. Shu bois ularni bir necha kun oldin talabalarga taqdim etish kerak bo‘ladi. Biz xuddi ana shu yo‘lni tanladik va axborot soati materiallarini talabalarga oldindan berib yubordik. Biz bergan topshiriqning yana bir sharti talabalar axborot soati materillarini daftarlariiga konseptlashtirishi lozim edi. Materialni konseptlashtirish jarayonida ham talabalar axborotning muhim jihatlariga e’tiborni qaratadilar va ularda mavzuga nisbatan umumiy tushunchalar hosil bo‘ladi. Biz tashkil etgan axborot soatlarida topshiriqni oldindan oлган va mashg‘ulotga tayyor holda kelgan talabalar bilan har bir mavzu yuzasidan 10 minutlik ma’ruzalar qilindi. Va qolgan 10 minutda esa qisqagina davra suhbatlari tashkil etildi va talabalarda har uchala mavzuga nisbatan umumiy bilimlar hosil qilindi. Talabalar bilan tashkil etilgan barcha axborot soati mavzulari ularda umummiliy qadriyatlarga xos tarbiyani shakllantirishga xizmat qildi. Talabalar bu mashg‘ulotlarda yurtimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalardagi islohotlar, bunyodkorlik ishlari, siyosiy yangiliklar, dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘lib bordilar. Axborot soatlarida turli innovatsion metodlardan foydalandik. Masalan, FSMU, toifalash, insert jadvali, B-B-B texnologiyasi kabilarni misol qilib olishimiz mumkin.

Shunday qilib, biz tajriba-sinov ishlari jarayonida shunga amin bo‘ldikki, yoshlarni umummiliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish ishlari tizimli tashkil etilmog‘i va ular faqat o‘quv mashg‘ulotlarida emas, balki ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar jarayonida ham amalga oshirish lozimligi kuzatildi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturning uchunchi bosqichiga ko‘ra biz talabalar bilan “Qadriyatlar va men”, “Mening xayotimda qadriyatlarning o‘rni”, “Umummiliy qadriyatlarga mening munosabatim”, “Mening hayotim qadriyatlar bilan go‘zal”, “O‘zbekona qadriyatlar” kabi mavzularda referat yozib kelishlarini topshirdik. Bundan maqsad tashkil etgan mashg‘ulot va tadbirlar yuzasidan talabalarning bilimlarini umumlashtirish, xulosalashdan iborat. Talabalarga referat topshiriqlarini berishda ularga referat mavzusini erkin tanlashi yoki boshqa qadriyatlarga xos mavzu doirasida referat yozishi mumkinligini aytib o‘tdik. Referatlarni tayyorlash muddatini bir xafka deb belgiladik. Bir xafadan so‘ng referatlar yig‘ib olindi va tahlil qilinib, baholandi. Bunga ko‘ra tajriba guruhi talabalaridan 22 nafari a’lo bahoga, 18 nafari yaxshi va 10 nafari qoniqarli baho oldilar. Baholangan referatlar talabalarga tarqatildi va muhokama kuni belgilandi. Muhokamada biz eng yaxshi referat sohibini ma’lum qildik. Shunday qilib eng yaxshi deb topilgan referatlar talabalarga o‘qib eshittirildi. Qadriyatlarning inson hayotidagi o‘rni yana bir bor talabalarga eslatib o‘tildi.

Tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari va kuzatishlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, talaba yoshlar ummiliy qadriyatlarning mazmunida ifoda etilgan g‘oyalarni tez qabul qiladilar. Shu bois, ta’lim jarayonida har bir mavzuni o‘rganishda umummiliy qadriyatlardan foydalanish, ularning mazmuni bilan o‘quvchilarni yanada yaqinroq tanishtirib borish, ularda umummiliy

qadriyatlarga xos ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, shuningdek, ularni shaxs sifatida faollashtirishga yordam beradi. Tajriba jarayonida shu tahlitda yo‘l tutish natijasida талабалар dunyoqarashining boyiganligi, ularda mustaqil, erkin fikrlash ko‘nikmalari shakllanganligining guvohi bo‘ldik. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, talaba shaxsini faollashtirishda umummilliy qadriyatlardan foydalanishda aniq maqsadning qo‘yilishi hal qiluvchi omil sanalib, ana shu maqsadni amalga oshirishga yo‘naltirilgan dars ishlanmalarining tayyorlanishiga alohida e’tibor berish zarur. Dars ishlanmalarining nazariy va metodik jihatdan puxta bo‘lishi, asosiy mazmunni yoritishga xizmat qiluvchi metodlarning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Tadqiqotni olib borish jarayonida talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos fazilatlarining namoyon bo‘lish mezonlari asoslandi. Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos fazilatlar aks etishi mazkur mezonlar bo‘yicha quyidagicha aniqlandi:

1. Yuqori darajada – 5 ball.
2. O‘rta darajada – 4 ball.
3. Past darajada – 3 ball.

Shunday qilib biz ishlab chiqqan dastur ishlari yakunlandi va talabalarning dastur asosida egallagan bilimlari chiqish testi orqali aniqlab olindi. Shu o‘rinda test topshiriqlari bo‘yicha talabalarning javoblarini keltiramiz va ularning mazmunini tashlil etamiz:

Tajriba-sinov guruhiga biriktirilgan 1-3 kurs talabalarining tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida anketa so‘roviga qaytargan javoblari. Tajriba guruhi 50 nafar, nazorat guruhi-56 nafar. Jami: 106

Talabalarning chiqish testidagi natijalari

3.1.2.-jadval

Baho ko‘rsat kichlari	Tajriba guruhi (50 нафар)	Foiz	Nazorat guruhi (56 нафар)	Foiz
“5”	10	20%	6	10,7%
“4”	21	2%	10	17,8%
“3”	19	38%	38	67,8%
“2”	0	%	2	3,5%

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida talabalarning faoliyatini tashlil etish, ularning umummilliy qadriyatlarga ijobiy xususiyatlariga egalik, shuningdek, ularga amal qilish darajalarini basholashda quyidagi kirsatkichchlarni qilga kiritdik (3.2.7-jadval).

1. Yuqori daraja – talabalar “qadriyat”, “qadriyatlarning turlari” hamda “umummilliy qadriyatlar” tushunchalari mohiyatini to‘la anglaydilar, umummilliy fadriyatlar negizida aks etuvchi sifatlar

3.1.3-jadval

Talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos xususiyatlarining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari

Guruhsiz	Darajalar		
	Yuqori	O‘rta	Quyi
Tajriba guruhi 50 nafar	24	16	10
Nazorat guruhi n2 q 56 nafar	8	23	25

to‘g‘risida to‘la ma’lumotga egalar, ular o‘zlarida umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni namoyon eta oladilar.

2. O‘rta daraja – talabalar “qadriyatlari”, “umummilliy qadriyatlari” hamda “milliy qadriyatlari” tushunchalari mohiyatini qisman anglaydilar, umummilliy qadriyatlari negizida aks etuvchi sifatlar to‘g‘risida muayyan ma’lumotga egalar, ular ayrim vaziyatlarda o‘zlarida umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni namoyon eta oladilar.

3. Past daraja - talabalar “qadriyatlari”, “umummilliy qadriyatlari” hamda “milliy qadriyatlari” tushunchalari mohiyatini anglamaydilar, umummilliy qadriyatlari negizida aks etuvchi sifatlar to‘g‘risida ma’lumotga ega emaslar, ular o‘zlarida umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni namoyon eta oladilar, biroq, ushbu holat ularda o‘zlarining tashabbusi bilan amalga oshmaydi.

Tajriba-sinov ishlarining asoslovchi va ta’kidlovchi tajriba bosqichlarida talabalarning faoliyati ularning e’tiborlariga havola etilgan test topshiriqlariga bergan javoblari, ishlab chiqilgan dastur bo‘yicha tashkil etilgan darslar jarayonidagi faolliklari, shuningdek, pedagogik kuzatuv yordamida aniqlangan ularning qiyofasida umummilliy qadriyatlari xususiyatlarining aks darajasiga muvofiq baholab borildi. Baholash chog‘ida ularning faoliyati quyidagi meyorlar bo‘yicha o‘lchandi.

3.2.4-jadval.

Talabalarda umummilliy qadriyatlari xususiyatlarining namoyon bo‘lishi darajasini belgilovchi mezonlar ko‘rsatkichlari

No	Daraja ko‘rsatkichi	Foiz miqdori	Baho ko‘rsatkichlari
1.	Yuqori daraja	100-86 foiz	5

2.	O‘rtta daraja	85-71 foiz	4
3.	Quyi daraja	70-55 foiz	3

Shunday qilib, tajriba-sinov ishlarining eng so‘nggi natijalari 1-kurs talabalarining maxsus dastur asosida o‘quv-tarbiyaviy ishlar olib borish natijasida talabalarda umummilliy qadriyatlar xususiyatlarining namoyon bo‘lish, shuningdek, ularning ijtimoiy faoliyklari darajasi sezilarli darajada oshganligidan dalolat beradi.

Uchinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda pedagogik tizimni talab darajada tashkil etish, bunda o‘quv tarbiya jarayonini ma’naviy ma’rifiy tabirlar bilan muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.
2. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishning samarali usuli disput, munozara, davra suhbatlari, trening ekanligi tajriba sinov ishlari jarayonida namoyon bo‘ldi.
3. Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda rolli o‘yin va boshqa metodlarning ahamiyati katta bo‘lib, bularni qo‘llash natijasida talabalarda o‘tilgan mazularga nisbatan qiziqish, ijodiy yondoshish, atrofdagilarga nisbatan hurmat va e’tibor yuksalib boradi.
4. Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda axborot soatlari, adabiy kecha, shanbalik va ko‘rik tanlovlardan foydalanish natijasida tajriba guruhi talabalarining ko‘rsatkichlari yuksalib borganligi kuzatish mumkin.

UMUMIY XULOSALAR

Umummilliy qadriyatlar barcha davrlarda ham inson manfaatlari uchun xizmat qilgan va shu sababli ular doimiy yashovchan xarakter kasb etgan. Biroq ular qay bir jamiyat va qaysi davrda inson qadr-qimmati yuksak baholangan bo`lsa, shu mamlakatda rivojlangan ba boyigan. Xuddi shunday bizning mamlakatimizda ham bugungi kunda umummilliy qadriyatlarning rivojlanishiga va yuksalib borishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Shaxsan mamlakatimiz Prezidenti I. Karimovning o‘zлari yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishga alohida e’tibor berib kelmoqda. Negaki, talabalarda vatan va xalq ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, yurt tabiatini va boyliklarini asrash, eng asosiysi tinchlikni e’zozlashga o‘rgatish davr talabidir. Mamlakatimizni rivojlantirish, dunyo miqyosiga olib chiqish bugungi yoshlarning burchi va vazifasi ekan, bunda ular buyuk alloma, mutafakkirlarimizning ma’naviy

merosi, xalqimizning boy og‘zaki ijodi, yozma manbalari, go‘zal bayramlari hamda urchodatlari, tarixiy xotirasiga suyanmog‘i darkor.

Olib borilgan tadqiqot ishlari bo‘yicha shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, umummilliy qadriyatlarini e’zozlaydigan fazilat egalari etib tarbiyalashda quyidagilarni amalga oshirmoq lozim:

- talabalarga qadriyat, qadriyatlarning turlari, umummilliy qadriyat tushunchalarining mohiyatini kengroq anglatish;
- talabalarni tinchlik, vatanparvarlik, ezgulik, insoniylikni qadrlashga o‘rgatish;
- yoshlarda boshqa millat vakillariga, ota-onaga va ustozga hurmat hissini shakllantirish, inson sog‘ligi va uning manfaatlarini himoya qilish, yaxshilik va ilm egallahsha intilish, moddiy qadriyatlar va boyliklarni asrashga da’vat etish.

Amalga oshirilgan tadqiqot natijasida quyidagi xulosaga keldik.

1. O‘rganilgan ilmiy, pedagogik va falsafiy manbalar shundan dalolat berdiki, talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.

2. Olib borilgan tadqiqot ishlari, to‘plangan ilmiy dalillar talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasi shakllanganligining mavjud darajasi haqida aniq tasavvur hosil qilish imkonini va umummilliy qadriyatlarga xos fazilatlarni shakllantirishga ko‘maklashadigan didaktik vositalar, manbalarni aniqlashga yordam berdi.

3. Tadqiqot natijalari talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirish mezonlari va dasturini aniqlashga hamda ularning tarbiyaviy imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga asos bo‘ldi.

4. Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda pedagogik tizimni talab darajada tashkil etish, bunda o‘quv tarbiya jarayonini ma’naviy ma’rifiy tabirlar bilan muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq.

5. Yoshlarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishning samarali usuli disput, munozara, davra suhbatlari, trening ekanligi tajriba sinov ishlari jarayonida namoyon bo‘ldi.

6. O‘rganilgan va tahlil qilingan nazariy ma’ulumotlar shundan dalolat beradiki, talabalarda umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarni shakllantirishning pedagogik tizimini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biridir.

7. Biz tanlagan va qo‘llagan pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari: kuzatish, savol-javob, anketa so‘rovlari, turli yozma ishlar ba boshqalar talabalarda umummilliy qadriyatlar vositasida

umummilliy qadriyatlarga xos sifatlarning tarbiyalanganlik darajasining amaldagi holatiga doir xilma-xil va maqsadga yo‘naltirilgan axborotlarni to‘plashga imkon berdi.

8. Adabiy kechalarni talab darajasida tayyorlash va o‘tkazish amaliyoti bo‘lajak mutaxassisning madaniy-ma’naviy rivojlanishi uchun, o‘z-o‘zini takomillashtirishi uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi, bular o‘z navbatida yoshlarda umummmiliy qadriyatlarga xos tarbiyani rivojlanishiga olib keladi.

9. Tadbirlarni tashkil etishda talabalar tomonidan namoyish etilayotgan tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorlikni qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilayotgan tadbirning samaradorligini yuksaltiradi va qizqiarli, mazmunli o‘tishiga olib keladi.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar va tajriba-sinov natijalari tadqiqotning ilmiy farazi to‘g‘riligini asoslash imkonini berdi.

Yuqorida bayon qilingan xulosalar asosida quyidagilarni **tavsiya** qilamiz:

1. Talabalarni umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda kamolot yoshlar ijtimoiy harakatining imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

2. Yoshlar faoliyatini mazmunli va qizqarli o‘tkazish yo‘llarini izlash va bunda umummilliy qadriyatlardan foydalanish kutilgan samaradorlikka olib keladi.

3. Talabalarni qadriyatlarga oid manbalar bilan yaqindan tanishtirish maqsadida ularga targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish darkor.

4. Talabalarning umummilliy qadriyatlarga xos tarbiyasini shakllantirishda ularning tashabbuskorlik, mustaqillik, ijodkorliklarini qo‘llab-quvvatlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000. – 7-19-b.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000. – 20-55-b.
3. Uzviylashtirilgan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. (1-4sinflar) T.: 2010, “Yangi yo‘l poligraph servisi” 46 b.
4. O‘zbekiston Prezidentining 2004 yil 21 maydagi “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlanirish Davlat umummilliy dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni. Ma’rifat, 2004 yil 22 may.
5. Karimov I. A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T.: O‘zbekiston, 1992. -78b

6. Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Том 8.- Т.: Ўзбекистон, 2000.- 509 б.
7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma'naviyat, 2008.-176 b.
8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T., 2009.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi. T., 2010.
- 10.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida.T.:“O'zbekiston”, 2011, 430.
11. Abduvahobov U. Shaxs (Komil inson haqida). – T.:Vatan, 1996. – 20 b.
12. Abdullayeva Q., Aliqulova N., Rahmonbekova S. Odobnama. (2-sinf uchun darslik) . T.: “O'zbekiston”, 2010, 77b.
13. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik . Asqar Mahkam tarjimasi.-T.: Sharq NMAK, 2001. – 400 b.
14. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992.–160 b.
15. Azarov Y.P. Tarbiyaviy ish metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1991. – 67 b.
16. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000. – 52 b.
17. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). – T.: O'zbekiston, 1990. – 199 b.
18. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. Al-Jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 4 kitob. 1-kitob. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – 550 b.
19. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiyat (Vatan fidoiylari). – T.: Akademiya, 2000. – 630 b.
- 20.Almetov N. Pedagogika. Savollar va javoblar. O'quv qo'llanma.-Almati: Nurli beyne, 2004.- 201 b.
- 21.Amir Temur o'gitlari (to'plam) Tuzuvchilar:B.Ahmedov, A.Aminov.-T.: Navro'z, 1992. – 64 b.
22. Boburnoma. Mahmud Sa'diy, Najmaddin Komilov. T.: O'qituvchi, 2008. – 286 b.
23. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanl.asarlar.– T.: Fan, 1 t. 1968. – 488 b.
- 24.Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar).-T.: Xalq merosi, 1-k. 1995. – 104 b.
25. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. M.Qarshiboyev. – T.: Ma'naviyat, 1999. – 240 b.
26. Fitrat, Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.D. A.Alimova. tarj.: Sh.Vohidov. – T.: Ma'naviyat, 1998. – 112 b.

27. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. Tuzuvchi M.Mahmudov. - T.: Xalq merosi, 1993. – 224 b.
28. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov H. Pedagogika tarixi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2005. – 248 b.
29. Hasanboyeva O. Inoyatova M., Ne’matova A., Odobnama. 2-sinf uchun darslik. T.: “O‘qituvchi” 2012, 76 b.
30. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., Turopova M. Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002. – 112 b.
31. Holiqova M., Ergasheva Sh. Odobnama. 3- sinf uchun darslik. T.: “Yangi yo‘l roligraf serves”, 2012.- 93 b.
32. Holiqova M., Ergasheva Sh., Odobnama. 4-sinf uchun darslik. “Yangi yo‘l roligraf serves”. 2011,- 92 b.
33. Ibn Sino, Abu Ali. Tib qonunlari (Uch jildlik saylanma).– T.: Xalq merosi, 1-jild. 1993. – 3-182-b.
- 34.Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika. O‘quv qo‘llanma.-T.: Fan, 2004. 182 b.
35. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. Mas’ul muharrir: N.Komilov. – T.: Sharq NMAK, 1996. – 66 b.
36. Javliyev T. An’analar hayot sabog‘i.- T.: O‘qituvchi, 1992.- 87 b.
37. Jalolov A. O‘zbekiston mustaqillik, ma’naviyat va mafkura.-T.: Ma’naviyat, 2004.- 189 b.
38. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti.- T.: O‘qituvchi, 1994.- 256 b.
39. Kaykovus, Qobusnom. Nashrga tayyorlovchi: S.Dolimov. – T.: O‘qituvchi, 1986. – 168 b.
40. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, K.1. 1996. – 272 b.
41. Koshifiy, Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors-tojik tilidan N.Komilov tarjimasi. – T.: Xalq merosi, 1994. – 112 b.
42. Mavlonova R. To‘rayeva O, Holiqberdiyev K. Pedagogika. - T.: O‘qituvchi, 2002. – 384 b.
43. Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar . Tuzuvchi A.Zunnunov. – T.: O‘qituvchi, 1996. – 271 b.
44. Ma’naviyat darslari (o‘rta maktablarning X-XI sinflari uchun majmua). S.Nishonova. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 320 b.
45. Mahkamov U.I. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. – 134 b.
46. Mahkamov U.I. O‘quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirish muammolari. – T.: Fan, 1995. – 200 b.
47. Mahmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida). – T.: Sharq NMAK, 2001.–160 b.
48. Mahmudov S. O‘zbek udumlari.-T.: Fan, 1993.- 218 b.

49. Mahmudov T. Avesto haqida.- T.: Guliston, 2000.- 63 bet.
50. Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat.- T.: Sharq, 2001.-160 b.
51. Matjonov S., Shojalilov A., G'ulomova X. Va boshqalar. –T.:Yangi yo'l polograf servis, 2013.-240 b.
52. Ming bir hadis.- T.: Mavarounnahr, 1998.- 144 b.
53. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlар tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
54. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. M.Abdullayev, M. 55. Abdullayeva, G. Abdurazzoqova va boshq. A.Jalolov va Q.Xonnazarov umumiy tahririda. – T.: Sharq NMAK, 2000. – 320 b.
56. Mo'minov I.M. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. – T.: Fan, 1993. – 56 b.
57. Navoiy, Alisher. Mahbub-ul qulub (Qalblar sevgilisi). – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 111 b.
58. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. - T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2004.- 196 b.
59. Oripova N., Muhammadiyeva M., Yarmanova Y. Boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish metodikasi. –Qarshi. Nasaf, 2013.-52 b.
60. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. Saylanma.– T.:O'qituvchi, 2001. – 432 b.
61. Ochilov M., Ochilova N. O'qituvchi odobi. T.: O'qituvchi, 1987. – 134 b.
62. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. - Qarshi: Nasaf, 2000. – 80 b.
63. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995. – 207 b.
64. Pedagogika. A.Q.Munavvarovning umumiy tahriri astida. – T.: O'qituvchi, 1996. – 200 b.
65. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. Protsess vospitaniya. Uchebnik dlya stud.ped.vuzov. V 2 kn. – M: Vlados, Kn. 2. 1999. – 256 s.
66. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. - Т.: Ўқитувчи, 1991.- 186 б.
67. Qur'oni karim. Tuzuvchi.Shayx Abdulaziz Mansur.-T.: "Toshkent islom universiteti. 2007. 617 b.
68. Saidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar. – T.: O'zMU OPI, 2003. – 68 b.
69. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003. – 172 b. 70. Temur tuzuklari. Forschadan H.Karomatov tarjimasi.–T.: Sharq NMAK,-144 b.
71. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.X. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. – 206 b.
72. Tulenov J.T. Qadriyatlar falsafasi.- T.: O'zbekiston, 1998.- 335 b.

73. Туленов Ж., Фофуров З. Фалсафа.- Т.: Ўқитувчи, 1997.-381 б.
74. Umarov E., Abdullayev M. Ma'naviyat asoslari.-T.: Sharq NMAK, 2005.-128b.
75. Umumiy psixologiya . Pedagogika institutlari uchun darslik. Petrovskiy A.V. va boshqalar. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 512 b.
76. Vatan tuyg‘usi.A.Ibrohimov,X.Sultonov,N.Jo‘rayev-T.:O‘zbekiston,1997.-439b
77. Yo‘ldoshev J.G‘., Hasanov S. “Avesto”da axloqiy-ta’limiy qarashlar. O.Obidov tahriri ostida. – T.: O‘qituvchi, 1992. – 29 b.
78. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo‘llanma. – T.: O‘qituvchi, 2004. – 104 b.
79. Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.-T.: O‘qituvchi, 1994.- 119 b.
80. Yo‘ldoshev J. Ta’limimiz istiqlol yo‘lida.-T.: Sharq, 1996.- 223 b.
81. Yo‘ldoshev M. Madaniyat insonni ulug‘laydi . Muloqot.-2000.-№ 5.-19-21-b. 82. Yo‘ldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati.-T.: O‘qituvchi, 1994.- 119 b. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.- T.: Davlat ilmiy nashriyoti, Tom 2, 2001.- 703 b.
83. Yusupov E. Falsafa.- T.: Sharq, 1999.- 494 b.
84. Ziyomuhamedov B. Ilm hikmati (Olim bo‘lish sirlari). – T.: Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti, 1999. – 88 b.
85. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: Fan, 2004. – 335 b.
86. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 1-jild. T.: O‘qituvchi, 1995.- 478 b.
87. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. 2-jild. T.: O‘qituvchi, 1999.- 478 b.
88. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-T.: Tom 1, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.- 679 b.
89. O‘zbek xalq maqollari. - T.: Sharq, 2003.- 510 b.
90. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. T. 2004, -671 b.
91. G‘afforova T.G‘., Qurbonov A., Godfri YE. Ta’limning ilg‘or texnologiyalari Oliy o‘quv yurti talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. – Qarshi: Nasaf, 2003. – 112 b.
92. G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Qarshi.: “Nasaf”, 2009, 162 b.
93. G‘afforova T., Sh. Nurullayeva, Mirzahakimova Z. O‘qish darsligi. 2-sinf.
-T.: Sharq 2012. 257b.
94. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya I kitob, T.: 2004 y,-210 b.

Internet saytlari

www.ziyonet.uz

www.pedagog.uz

ILOVALAR

1-ilova

Boshlang'ich ta'lif va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari bilan o'tkazilgan test so'rovlarini savollari

1. Qadriyatlar to'g'ri ifodalangan qatorni belgilang?

- a) milliy urf-odatlar va marosimlar;
- b) o'zbek tili, tarixiy xotira va o'tmishni;
- v) o'zbek xalq og'zaki ijodini;
- g) barcha javoblar to'g'ri.

2. Qadriyatlarning turlari to'g'ri ko'rsatilgan qatorni belgilang ?

- a) mintaqaviy, umummilliy va axloqiy qadriyatlar;
- b) tabiiy va moddiy qadriyatlar;
- v) milliy, insonparvarlik va mintaqaviy qadriyatlar;
- g) milliy, mintaqaviy, umummilliy qadriyatlar.

4. Qadriyatlar shakliga ko'ra qanday qadriyatlarga bo'linadi?

- a) moddiy va iqtisodiy qadriyatlar;
- b) moddiy va ma'naviy qadriyatlar;
- v) ijtimoiy, siyosiy, huquqiy qadriyatlar;

g) barcha javoblar to‘g‘ri

5. Odob-axloqqa oid qadriyatlar qaysi qadriyat turkumiga kiradi?

- a) insonparvarlik qadriyatiga;
- b) ma’naviy qadriyatlarga;
- v) umuminsoniy qadriyatlarga;
- g) barcha javoblar to‘g‘ri

6. Umummilliylar qadriyatlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang?

- a) ona sayyoraning sofligi, inson sog‘ligi va erkinligi, tinchlik va boshqalar;
- b) tabiiy, moddiy qadriyatlar;
- v) axloqiy poklik, milliy til, o‘zligini anglash;
- g) barcha javoblar to‘g‘ri.

7. Siz tahsil olayotgan oliy dargohning tozaligi uchun kimlar mas’ul deb hisoblaysiz?

- a) dekan va dekan o‘rinbosarlari;
- b) farroshlar;
- v) talabalar va o‘qituvchilar;
- g) barchalari.

8. Universitet miqyosida o‘tkaziladigan shanbaliklarga ishtirokingizni qanday baholaysiz?

- a) o‘z ixtiyorim bilan qatnashaman;
- b) navbatim kelsa qatnashaman;
- v) muntazam qatnashib boraman;
- g) guruh rahbarining talabiga qatnashaman.

9. Tinchlik uchun kurashda sizning vazifangiz nimadan iborat bo‘lishi kerak deb hisoblaysiz?

- a) o‘z ustimda ishlashim va bilim darajamni ustirishim lozim;
- b) tevarak-atrofdagi voqealarga ogoh bo‘lim kerak;
- v) bu mening vazifamga kirmaydi;
- g) beparvo bo‘lmasligim va o‘z vaqtida kerakli choralarni ko‘rishim lozim.

10. Kelajak barkamol avlodni tarbiyalashda sizning burchingiz nimalardan iborat deb hisoblaysiz?

- a) o‘quvchilarga yaxshi bilim berishim kerak;
- b) o‘quvchilarim sog‘ligini mustahkamlashim lozim;
- v) ota-onalar bilan aloqani yo‘lga qo‘yishim kerak;
- g) o‘quvchilarga yaxshi bilim berishim, ularda insoniy fazilatlarni shakllantirishim lozim;

2-ilova

Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalariga murojjat qilingan og‘zaki so‘rov savollari

1. Talabalik davringizda universitet kutubxonasidan qadriyatlarga oid kitoblarni olganmisiz?
2. Talabalar tarbiyasida qadriyatlarning rolini muhim deb hisoblaysizmi, fikringizni asoslab bering ?
3. Qadriyatlarni qaysi fanlar negizida o‘rgangansiz ?
4. Talaba shaxsini yuksaltirishda oila, o‘quv yurti, mahalla va jamoatchilik hamkorligi muhim deb hisoblaysizmi?
5. Tarbiya haqidagi allomalarning fikrlaridan misol keltiring ?
6. Bo‘s sh vaqtingizdagi sevimli mashg‘ulotingizni aytинг ?
7. A’lo yoki yaxshi bahoga o‘qish sizga nima uchun kerak?

